

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishi 445-guruh talabasi
G'oziyeva Mavludaning

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Abdulla Sher she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik
(H.Hayne she'riyati ta'siri misolida)

Ilmiy rahbar

A. Qosimov,
filologiya fanlari doktori

Taqrizchi

T. Ro'ziboev,
FarPI qoshidagi AL o'qituvchisi

Farg'ona-2012

REJA:

Kirish.

I BOB. Lirikada umuminsoniy kechinmalar

1-fasl. G'oya va badiiy mahorat.

2-fasl. Tabiat tasviri va inson kechinmalari.

II BOB. Tarjima va ijodiy ta'sir muammolari.

1-fasl. Lirikada an'ana va o'ziga xoslik.

2-fasl. Xarakter yaratishning usul hamda vositalari.

Xulosa.

K i r i s h

Mustaqillik sharofati bilan milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, xususan, adabiyotimizga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Istiqlol sharoitida adiblarimizning ijodiy merosi har qanday bo'g'ovlardan ozod holda o'rganilmoqda. Spo'rolar davrida o'zbek adabiyoti har qanday siyosiy-ijtimoiy "qoliplar" ichida bo'lsa-da, rivoj topdi, eng muhimi, ma'naviyat xazinasini, targ'ibotchisi bo'lib xizmat eta oldi. Ayni bir paytda, iste'dodli ustoz adiblar qatoriga o'nlab, yuzlab yosh, isyonkor ijodkorlar kirib keldi. Adabiy jarayondagi ular ijodini, qolaversa, adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini, rolini izohlovchi, baholovchi o'nlab maqolalar, monografiya, darslik hamda qo'llanmalar yaratildi.

Milliy mustaqillik tufayli mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar badiiy adabiyotda erkin va xolis yoritilmoqda. Ayniqsa, milliy istiqlool g'oyalarining xalq ongiga, qalbiga yetib borishida katta rol o'ynovchi she'riyat o'zining mas'uliyatli va sharaflil vazifasini to'laqonli bajarishga kirishdi.

Shuning uchun ham bu davrga kelib, mamlakatdagi hayotni, kishilarning orzu-umidlarini, kechinma va intilishlarini xolis hamda haqqoniy ko'rsatadigan asarlar vujudga kela boshladi.

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotning eng buyuk va muqaddas burchi odamga uning kimligini ko'rsatishdir.

Badiiy adabiyotda, eng avvalo, inson va uning taqdiri, ruhiy olami va kechinmalari tasvirlanadi.

Lirika - fikr va his-tuyg'ular uyg'unligining teranlashgan ko'rinishi, deyishadi. Bu hol uning yakka, yolg'iz mohiyatlaridan teran falsafiy umumlashmalarga kelishida, bugungi voqeligimizdan kelajakka daxldor belgilarni ko'rishi va topa bilishida, ularni umumlashtira olishida namoyon bo'ladi. U, birinchi navbatda, insonning ma'naviy-ma'rifiy tasavvurlarini shakllantiradi. Insonning faqat aqliy quvvatigagina emas, uning ruhiy holatiga ham ta'sir etadi.

Bu haqda mavjud fikrlarni umumlashtirib, Yurtboshimiz I.A. Karimov shunday yozadi: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning

insonshunoslik, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas"¹.

Adabiyotshunos Y.Solijonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "So'z - insonga xos ichki va tashqi dunyoning tarjimoni. So'zning qudrati, go'zalligi, ma'nodorligi, ta'sir kuchi ayniqsa, she'rda aniq ko'zga tashlanadi."²

Shoir she'rlari orqali insonning ichki olami, xarakteri, orzu-istaklari va tuyg'ularini ochib berar ekan, unda shu real borliqning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy qiyofasini ham tasvirlaydi.

Mana shu tasvirdan qalamga olinayotgan davrning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy obrazi vujudga keladi. Bu lirik qahramon bo'lib, unga nisbatan, albatta shoir tuyg'ulari, munosabati va bahosi mavjud bo'ladi. Bugungi kundagi murakkab ijtimoiy munosabatlarning badiiy adabiyot, xususan, she'riyatdagi talqini, birinchi navbatda adabiyotshunoslikning o'zi uchun, ikkinchidan, sotsiologiya va psixologiya uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib baholansa, mavzuning dolzarbligi ayon bo'ladi.

Badiiy ijod mahsulida ijodiy ta'sir masalasi deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Mumtoz ijodkorlar faoliyatiga bag'ishlangan ishlarda ham dastavval o'zaro ta'sir bilan bog'liq hollar tahlil etiladi.

Lekin Abdulla Sher lirikasida ijodiy ta'sirlanish, lirik obraz yaratish usullari, uning ijodidagi an'anaviylik va o'ziga xosliklar alohida o'rganilgan emas. Xususan, mashhur nemis shoiri Haynrih Hayne she'riyatini tarjima qilish jarayonida Abdulla Sherning ijodiy ta'sirlanishi, mumtoz an'analar va zamonaviy adabiy jarayonlar qatorida uning lirikasiga Haynrih Hayne ijodi xususiyatlari ham ta'sir o'tkazganligini tekshirish qiziqarli natijalarni berishi mumkin. Bu tadqiqotimizning o'rganilganlik darajasini belgilaydi

Shoir o'z ijodiy faoliyati davomida turli lirik janrga mansub she'rlari orqali inson xarakteri, ona yurtga munosabat, ruhiyat qirralarini ifodalovchi ko'plab namunalar yaratgan. Ana shu asarlardagi o'zaro ijodiy ta'sirlanish mahsuli bo'lgan

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T: - 2008 y. 136-bet .

² Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. A.Navoiy nomidagi O'zbek Milliy kutubxonasi nashriyoti.T: - 2009.

usul hamda vositalarni, qolaversa, Abdulla Sher ijodiy faoliyatini o'rganish va ilmiy-ijodiy tadqiq etish ishning maqsadidir.

Maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Haynrih Hayne ijodi va Abdulla Sher lirikasida insonning ruhiy manzaralarini ochish usullarini ko'rsatish;
- Umuminsoniy tuyg'u va tushunchalarni ifodalashda lirikaning o'rnini o'rganish va tadqiq etish;
- Tarjima jarayonida lirik obraz va xarakter yaratishning milliy usul hamda vositalarini tahlil etish;
- Abdulla Sher ijodidagi an'ana va o'ziga xosliklarni aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Lirikada inson ruhiyati, uning voqelikka munosabati qanday aks etishiga doim e'tibor berib kelingan. Nafaqat she'riyat, balki ijodkor olami, uning o'ziga xos xususiyatlari, ijodiy faoliyati va adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissassi tadqiqotchi olimlar tomonidan ham e'tirof etib kelindi. Lekin Abdulla Sher ijodi hamda uning qalamiga mansub tarjima asarlar asosidagi bu mavzu shu tizim bo'yicha qilinayotgan ishlarga yangi mazmun qo'shadi.

Shoir tarjimalarida inson ruhiyati, olam va odamga nisbatan munosabat ifodasi quyidagi vositalar orqali ochib beriladi.

- portret vositasida;
- so'z vositasida;
- peyzaj bilan bog'lash vositasida;
- ruhiyat vositasida;
- ziddiyatli tasvirlar vositasida;
- zamon vositasida;
- makon vositasida.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Lirikada, xususan, Abdulla Sher ijodida tarjimachilik ta'sirida o'zlashib, milliy kolorit va mentalitet bilan uyg'unlashuv usullarini tadqiq qilish mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti. Abdulla Sherning lirik she'rlari va tarjima asarlarini o'z ichiga olgan, turli davrlarda turlicha nashrlarda e'lon qilingan ijod namunalari, unga zamondosh bo'lgan qalam ahllarining asarlaridan qiyosiy tahlil uchun olingan misollar tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qildi. Lirikada an'ana muammolarini yoritishda mumtoz adabiyotimiz namunalariga ham murojaat qilindi

Tadqiqotning joriylanishi. Himoyagacha quyi kurslarda kurs ishi bajarilgan, Farg'ona davlat universitetida bo'lib o'tgan an'anaviy ilmiy anjumanlarda o'qilgan ma'ruzalarda bitiruv-malakaviy ishning asosiy mazmun yo'nalishlari va mohiyati o'z aksini topgan.

Bitiruv-malakaviy ish kirish, to'rt faslni o'z ichiga oluvchi ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. LIRIKADA UMUMINSONIY KECHINMALAR

1-fasl. G'oya va badiiy mahorat

Lirika o'zbek adabiyotining eng ko'hna, boshqa adabiy turlarga nisbatan ustuvor darajada rivojlangan turidir. Jamiyat hayotida ro'y bergan har qanday voqea-hodisalarga birinchi bo'lib aks-sado beradigan tur lirik she'riyatdir. Ma'lumki, o'zbek lirikasi juda uzoq tarixga ega. Uning ildizlari g'oyat baquvvat, shuning uchun ham undan oziqa olgan she'riyat daraxti doimo yashnab, mo'l-ko'l hosil beraveradi. O'zbek lirikasi buyuk Sharq adabiyoti bag'rida voyaga yetib, eniga ham, bo'yiga ham unib-o'sib bormoqda. Ulkan bog'da o'sayotgan turli mevali daraxtlarning hosil tugishi oldidan changlanish hodisasi ro'y beradi. Tabiatning bu qonuniy hodisasi tufayli mevalar turlicha rangda, har xil shakl-shamoilda bo'lishi mumkin. Buni she'riyatga ham nisbat bersa bo'ladi. Davr taqozosiga ko'ra she'riyat ham vaqti-vaqti bilan rang-barang shakllarda hosil bera boshlaydi. Changlanish oqibatida mevalar turlicha bo'lsa-da, ta'mi o'zgarmaganidek, she'riyat shaklidagi o'zgarishlar ham uning mazmuniga ta'sir o'tkazmasligi lozim.³

Abdulla Sher o'zining qirq yildan ko'proq umrini samarali ijod bilan o'tkazdi. U o'zining she'r va dostonlari, dramatik va nasriy asarlari, yuksak badiiy tarjimalari bilan tanilgan ijodkorlardan biridir. Uning asarlari, asosan, zamonaviy ruhda yozilganligi bilan ajralib turadi. Ularda kishilarimizning ma'naviy dunyosi, o'y-istaklari, intilishlari o'ziga xos poetik obrazlar orqali, publiqistik ko'tarinkilik bilan ifodalangan. Abdulla Sher o'z asarlari orqali o'zi tug'ilib o'sgan yurt sururiyu tarovatini, samimiyati, ruhiyati va o'ziga xosliklarini adabiyotimizga bir qadar olib kirishga muvaffaq bo'lgan adib hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla Sher va unga tengdosh ijodkorlar katta umidlar bilan qalam ushlab, dil dardlarini qog'ozga tushirishga kirishgan 70-yillarda adabiy jarayonda birmuncha o'zgarishlar yuz bermoqda edi. SHu yillarda qo'p ijodkorlar o'ta ehtiyotkorlik bilan yozishga majbur bo'lganlaridan ko'z

³ Solijonov Y. Hozirgi o'zbek lirikasi. Farg'ona 2009 y, 3-bet.

yumish mumkin emas. Ammo shunisi ham muhimki, bu ijodkorlarning deyarli hammasi mehnatkash xalqqa, Vatanga, Ona zaminga muhabbatni ulug'lashda, ishq-muhabbatni, insoniy fazilatlarni, tabiat lavhalarini kuylashda yakdil edilar. Bunday tuyg'ular ta'siriga ularda mavzu mushtarakligi bilan bir qatorda, o'ziga xos shoirona nigoh va she'riy mahorat qirralari, shirali, rangdor til, yorqin obrazlar yaqqol ko'rinib turadi. Bu tamoyilni aynan Abdulla Sher ijodida ham kuzatish mumkin.

Abdulla Sherning dastlabki "Ko'klam tabassumi" to'plamiga kirgan she'rlarida shoirning oddiy, ammo beg'ubor tuyg'ulari, yoshlik orzulari samimiy ifodalanganligini sezish qiyin emas.

Bugun XXI asr boshida turib, adabiyotimiz bosib o'tgan yo'lga nazar tashlasak, XX asrning 70- yillari adabiyotda o'ziga xos burilish davri bo'lganini yaqqol sezamiz. Ayni shu yillarda she'riyat olamida turfa xil o'zgarishlar ro'y berdi, inson shaxsini, qalb kechinmalarini kuylash, sevgi dardi, hijron, hayot tashvishlari, turmush murakkabliklari haqida ham cho'chimasdan yozish tamoyillari ro'y bera boshladi. Bu ijodiy hodisaning ta'siri tezda o'z samarasini berdi: adabiyotning barcha janrlarida salmoqli asarlar yaratildi. Ayniqsa, she'riyatda jiddiy o'zgarish, olg'a siljish yaqqol ko'rindi. Poeziya maydonidagi yangilik mevalari haqida adabiy tanqidchilikda ham samimiy mulohazalar bildirildi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov «Zamon. Qalb. Poeziya» (1962 yil) nomli yirik tadqiqotida o'zbek she'riyati lirikasidagi rang-barang izlanishlar, yuksalish va ayrim nuqsonlarni teran umumlashtirib bergan edi. Biz uchun ayni chog'da muhimi shuki, ana shu kitobda she'riyatga yangi ohang, yangi mavzu va ranglar olib kirayotgan yosh iste'dodlar qatorida Abdulla Sherning nomi ham tilga olingan va uning ijodi haqida iliq fikrlar aytilgan edi. Bu paytda yosh shoir "Guliston" jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul kotib singari lavozimlarda xizmatda bo'lib, she'rlari matbuotda bot-bot ko'rinib turardi. Binobarin, Abdulla Sher ilk mashqlari bilan talabchan munaqqidlarda va ustoz adiblarda katta umid uyg'otgan edi.

“Atirgul soyasi” to’plamida shoirning poetik fikrlari tobora quyuqlasha boshlagani ko’zga tashlanadi. Asqad Muxtor qayd etganidek, Abdulla Sherning o’z oldiga qo’ygan ijodiy vazifalaridan biri ham chuqur zamonaviy fikrchanlik, ayni zamonda zamondoshlarga xos hissiy boylik, she’riyatimizning an’anaviy musiqiy ravonligini yo’qotmaslikdir.

Mana shu she’riy guldastadagi Abdulla Sher she’rlari adabiyotimizga yangi, o’ziga xos iste’dod kirib kelayotganining namoyishi edi.

Shoirning ilk she’riy to’plami 1973 yilda e’lon qilindi. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan bu kitob «Ko’klam tabassumi» deb nomlangandi.

Keyinroq uning «Alyor» (1977), “Atirgul soyasi” (1979), “Roz” (1980), “Kuz hiloli” (1983) “Qadimgi kuy” (1987), “Nuqtadan so’ng” (1989), “Toqat” (1997) kabi o’ndan ortiq she’riy to’plam va kitoblari chop etildi. Shoirning “Nuqtadan so’ng” to’plamiga kirgan doston va she’rlari keng kitobxonlar e’tiborini o’ziga tortdji. Sababi, endi shoir hayotning rangin lahzalarini tiyraklik bilan kuzatadi, o’ziga xos badiiy topilmalar vositasida muhim falsafiy fikrlarni o’rtaga qo’yadi. Undagi lirik qahramon goh o’z dardi, tashvishi, goho quvonchi bilan ham sizga yaqin bo’lib qoladi, siz uni suyib qolasiz, dardlashgingiz keladi.

Shuning uchun ham shoir lirikasi o’zbek kitobxonigagina emas, balki qozoq, qirg’iz, ozarboyjon, turk, rus, bulg’or, qalmiq, qrimtatar kabi xalqlar kitobxoniga ham yaqin, chunki ular shoir she’rlarini o’z tillarida o’qishga muyassar bo’lishgan.

Lirikada ko’pincha chekinish, hissiyot, aniqrog’i, his-tuyg’ular orqasiga yashiringan yangi fikr hukmron bo’ladi. Davr, vatan, zamondoshlar haqidagi samimiy va ehtirosli she’rlar shoirning g’oyaviy-badiiy dunyosini tayin etish bilan barobar, uning hayotiy pozitsiyasini ham belgilab beradi.

Ijod jarayoni g’oyat sirli va murakkab. Shu boisdan ham tom ma’nodagi ijod doimo individual va betakrordir. Lekin, ijodiy jarayon qanchalik individual va betakror bo’lmasin, shakl va mazmun o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikning umumiy qonuniyati bo’lganidek, novatorlikning ham umumiy mezonlari bor, nazarimizda.

Ijodning novatorlik xarakteri hayot va voqelikning yangi manzaralarini, yangi-yangi qirralarini, inson qalbining, ma'naviy dunyosining yangi-yangi qatlamlarini badiiy tadqiq etish bilan belgilanadi. Xususan, ana shu jarayonda yuzaga kelgan mazmun yangiligi, estetik ideal hamda g'oya yangiligi badiiy ijodning novatorlik xarakterini belgilab beradi.

Turli poetik janr va formalardagi izlanishlar faqat hayot va voqelikning yangi- yangi tomonlari, davr va jamiyat taraqqiyoti bilan, inson va insoniyat taqdiri bilan sinkretik uyg'unlikda tadqiq etilsa va ana shu poetik tadqiqot yangi g'oyaviy-estetik hamda falsafiy umumlashmalarda yoritilsa fayziyob mohiyat kasb etadi.

Odatda poetik soddalik har xil bo'ladi. Abdulla Sher lirikasida yuksak soddalik san'ati borki, bu ilhombaxsh izlanish, ijodiy mehnat samarasidir. Soddalik - bu poetik shakl va mazmunning organik birligi mevasidir. Bu mukammallik va yaxlitlikka erishishda shoirning ulkan ijodiy mashaqqatlari u qadar sezilmagandek, she'r go'yo shundoqqina yozilib qolgandek, yurakdan oqib tushgandek, ko'ngilning tub- tubidan quyilib kelgandek bo'ladi. Vaholanki, bu poetik soddalik shoirning etuk mahorati hosilasidir.

Abdulla Sher - hayot, Vatan, turmush, sevgi, sog'inch, hajr, go'zallik, mehr kuychisi. Bu xususiyatlar uning 1959 yilda Chinoz tumani gazetasida bosilgan dastlabki she'rlaridayoq kurtak sifatida namoyon bo'lgan edi.

She'riyatda Vatan mavzui-bu hayot qadar ko'hna va hayotdek navqiron; u doimo o'sish- ulg'ayishda. Bir qarasang uning chegaralari, tarixi o'rin almashadi; shunday o'rinlarda unda davr ruhining, ijtimoiy taraqqiyot- ning, xalq hayoti va taqdirining muhrini ko'rasan. Shunday kezlarda har bir davrda, shoirlar ushbu mavzuning o'zi ko'ra olgan ufqlarini, qirralarini ochadi, Vatan mavzui talqinida orttirilgan ulkan poetik tajribaga ma'lum darajada o'z ulushini qo'shadi, deya yana bir bor ishonch hosil qilasan. Abdulla Sher ham ulug' ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tiborini o'z she'rlariga olib kiradi va she'rlarining tub mohiyatiga ona Vatan, milliy iftixor, o'z tili va tarixiga bo'lgan muhabbati tuyg'ularini jo etadi. « Men shoirman » she'rida shunday o'rinlar mavjud:

Men yonaman: na yov, na do'stim

Qoraytolgan ufqimni erda.

Men olovman: zulmatni to'sdim –

Vatanim deb cho'g'landim she'rda!

Badiiy asar ijtimoiy- siyosiy voqelikning, davr taraqqiyoti va inson, xalq taqdirining ma'naviy- psixologik hamda falsafiy sintezini o'zida mujassamlashtirgan taqdirdagina yuksak san'at asari darajasiga ko'tarila oladi. Bu asarlarda poetik soddalikning yuksak san'ati o'z ifodasini topgan.

Bu hol uning yakka, yolg'iz mohiyatlardan teran falsafiy umumlashmalarga kelishida, bugungi voqeligimizdan kelajakka dahldor belgilarni ko'rishi va topa bilishida, ularni umumlashtira olishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, aytish mumkinki, Abdulla Sher lirikasida porloq kelajak ulug' tarix obrazi bilan yonmayon qo'yiladi:

Men olis chorlovga tutaman quloq,

Ohanglar ruhimni charxlab yashaydi.

Ular, go'yo bizga ishonib, bir choq

Bobolar qoldirgan nomga o'xshaydi.

(“Qadimiy kuy”)

Shoirning lirik qahramoni o'z vatanining kelajagiga, mustaqilligining boqiyiligiga ishonadi va uni boqiy zamin va abadiy osmonga taqqoslaydi. G'araz niyatli dushmanlarning o'z niyatlariga yeta olmasliklariga ishora qiladi.

Men shoirman, men – Abdulla Sher,

Barloslarning sarkash farzandi.

Aytgil Osmon, aytgil ona Yer:

O'z asrimga menmi asrandi?!

Bu narsa, birinchidan, shoir ijodining keyingi paytda zamonaviylikning turli xil masalalariga (ma'naviy- axloqiy, ijtimoiy falsafiy) munosabati yanada chuqurlashib borganini ko'rsatsa, ikkinchidan, u bugungi kunda yanada rang-baranglik kasb etib borayotganidan ham dalolat beradi.

She'riyatda murakkab obrazlilikdan «qochish» - obrazlilikdan mutlaq voz kechish emasligiga, balki me'yor saqlansa u eng yaxshi obrazlilik ekanligiga Abdulla Sher lirikasi misolida yana bir karra qanoat hosil qilish mumkin. Shu ma'noda aytish mumkinki, shoir lirikasi boshqa ijodkorlar she'rlaridan keskin farq qilaroq murakkab obrazlilikdan xoli. Lekin uning quyuq fikrlari, o'y-mushohadalari teranligida namoyon bo'lguvchi shiddatli ohanglar tovlanishi ranglar jilvasini aks ettiradi, u esa, o'z navbatida, shoir she'rlaridagi teran obrazlilikni ta'min etadi.

Abdulla Sher murakkab obrazlilik, quyuq metaforalik, rangdor sifatlashlar, oddiy va sodda, lekin jarangdor so'zlar (fikrlar) majmuasidan sehrli satrlar va she'rlar silsilasini yaratadi. Uning lirikasida oddiy va sodda, har bir o'quvchiga tanish so'zlar inson ma'naviy- psixologik kechinmalarini tajassum etadi.

Abdulla Sher lirikasida vatan mavzusidagi she'rlar ko'plab uchraydi. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, lirik qahramon tabiati bilan belgilanadi. Shoirning lirik qahramoni insoniyat va yer kurrasining taqdiri, Vatanining buguni va kelajagi to'g'risida kuyib-pishishi, qayg'urishi behalovatlik va bezovtalik bilan xarakterlanadi. Vatan va xalqning porloq kelajagini o'tmishi va buguni bilan uyg'unlikda talqin etuvchi obrazlar yaratadi.

Quyidagi ruboiysining soddaligi bilan yurakka yaqinligi uning samimiyligi va tabiiyligidadir:

Munchalar o'xshashmiz, ey charxi falak,

Men ham odam shaklin olgan g'ildirak.

Ne qilay, men bitta, dunyo ikkidir,

Ikki dunyo aro chopaman halak.

Bunday topib so'zlash, odamlarning tili uchida turgan gapni aytish, lirik qahramonning yuksak madaniyati, fursatdan oldinda yurish Abdulla Sher she'rlarining muhim fazilatlaridir.

Abdulla Sher ijodining ikkinchi bosqichi navbatdagi o'ziga xos bir qadam edi. U birinchi bosqichning davomidir, ayni holda uning tabiiy rivoji ham edi. Ular bir- biri bilan mazmunan ham, shaklan ham bog'liqdir.

Adibning qator she'riy kitoblari dunyoga keldi. Bu kitoblar ijodkorning adabiyot maydonidagi chinakamiga o'sish va ulg'ayish pallalari, g'ayrat- shijoati, mahorat va jasorati ko'zgusidir.

Jamiyat taraqqiyotida har bir avlod o'zidan oldingi avloddan ma'lum tomonlari bilan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Lekin insoniyat uchun eng muqaddas bo'lgan vatan, haqiqat, ezgulik, go'zallik tuyg'usi hamisha tabarruk an'ana sifatida avlodlardan avlodga ko'chaveradi. Har bir davrda har bir avlod ana shu muqaddas an'analarga o'z ishlari, so'zlari, e'tiqodlari, fikrlari bilan sodiq qoladi. Kechagi kunimiz bugun uchun, bugunimiz kelajak uchun tarix. Qudratli va sehrli so'z san'ati bugungi kunlarimizga, damlarimizga, davrimizga manguлик ato etadi. Kelajak avlodlar poetik so'zning qudrati natijasida har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikdan, xalq hayoti va taqdiridan, kishilik dardi-tashvishi va o'y-fikrlari, sevinchlaridan voqif topadi. Avlodlar hayoti silsilasida o'z hayoti, taqdiri va qiziqishlari, izlanishlari o'rtasidagi bog'liqlik nuqtalarini ko'radi.

Abdulla Sher, shubhasiz, iste'dodli shoirdir. Uning talanti lirik she'rlarida, ingliz, nemis, rus tillaridan to'g'ridan-to'g'ri qilingan tarjimalarda ham yaqqol ko'rinadi.

Ikkinchi davrda yozilgan she'rlarda tematika, she'rni yetarli va puxta badiiy umumlashtirish, hayotni kengroq qamrab olish va teranroq aks ettirish, tashqi va milliy adabiy an'analardan ijodiy foydalanish, shakl va mazmun sohasida boyib borish va janr jihatidan o'sish bor.

Lekin Vatan obrazini birov quyosh nurida, kimdir daraxtda, yana kimdir tuproq timsolida tasavvur etadi. Tuproqda inson izlarini, do'ppaygan qabrlarni ko'rar ekansan, umrning mazmuni, o'tkinchilik va abadiyat haqida o'yga tolasan. U yanada aziz, yanada mo''tabar bo'lib qoladi. Zero ulug' ajdodlarimizdan bo'lmish Yassaviy hazratlari ham asl sharafni tuproq bo'lishda deb bilganlar-ku:

Tuproq bo'lgil – olam seni bosib o'tsin...

Zotan, ana shu tuproqqa inson teri, inson qoni to'kilgan, odamlarning issiq nafasi ham, sovuq nafasi ham unga qo'shilib ketgan. Bir so'z bilan aytganda, inson ana shu tuproqqa ildiz otgan. Ammo tuproq haqida, uning zarrasi bo'lgan chang

haqida yangi gap aytish uchun ko'p yillik mahorat va tajriba, qadim mumtoz an'analar haqida teran bilim, qolaversa, muallifning o'z g'oyasi, falsafasi bo'lmog'i lozim. Abdulla Sher ijodida biz ana shu xususiyatlarning uyg'unlashganini "Chang" deb nomlanuvchi quyidagi she'rida ko'rishimiz mumkin:

Men ham tuproq edim,

Yer edim:

Vaxtliman, ulug'man, zo'rman

Der edim.

Va lekin

Odamlar bosdilar, ezdilar,

Tariximni buzdilar.

Endi ijirg'anib quvarlar

Mashriqdan, Mag'ribdan,

Machitdan, mehrobdan,

Artarlar, chertarlar, yuvarlar

Qoshlardan, kiprikdan, uydan, kitobdan;

Meni quvadilar – tinim yo'q menda,

Qanotsiz uchaman – qo'nim yo'q menda,

Holbuki Tuproq edim, Yer edim... odamlar...

Shunday she'rlar ham borki, ular shoir qalbi va ruhiyatidagi ziddiyat, e'tiroz va kurashning mahsuli sifatida vujudga keladi.

Hayotda har bir kishining o'z haqiqati bor, haqiqatlar maydalanib ketsa, o'zining asl kuchini bo'shashtirib yuboradi yo yo'qotadi. «Men may ichdim » deb boshlanuvchi she'rining falsafasi shunday:

...Netay axir, zada bo'ldim men

O'zim chiroq yoqqan vatandan;

Men er bo'ldim, ota bo'ldim men,

Endi esa gunohkor banda!

***Tuproqlarga belab g'animni,
Shoirman deb, uchib osmonga,
Men bilmabman aylanganimni
Asta-sekin tirik hamyonga...***

Biroq, inson hayoti faqat sevinch va zafarlardangina iborat bo'lmaydi, osoyishtalik va tashvish, yutuq va qoqinish bir-birini poylaydi, bu hol insoniyat hayotining qonunidir. U ayniqsa, shoirga tegishli, chunki shoir ham inson, insongina emas, tuyg'u va kayfiyatimiz tarjimoni hamdir..

Aytish mumkinki, bugungi lirikadagi obrazlarning Vatan va ona Yer haqidagi tasavvur va tushunchalari hozirgi ilmiy-texnika yangiliklari bilan nihoyatda boyib, davr va dunyo taqdiri tushunchalari hisobiga g'oyat ko'lamdorlik kasb etmoqda. Yangicha so'zlar she'rlar qatiga singdirilmoqda.

Hislar jilvasi, tuyg'ular manzarasi, teran fikr va mushohadalar o'zining falsafiy-psixologik misralar qatimiga joylab o'quvchi ko'ngliga singdiradi.. Abdulla Sher lirikasida O'zbekiston-Vatan - xalq - tabiat obrazlari umumiy uyg'unlikda ochiq bir kitobdek ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shoir she'rlarining asosiy mavzui-ona yurt, O'zbekiston, Vatandir. Aslida Vatan, xalq, ona yurt, tabiat-bular bir zaminda yuzaga kelgan tushunchalar. Yolg'iz Vatanni sevib xalqni, tabiatni sevmay bo'lmaydi. Ona yurtga, paxta dalalariga, bobo dehqonga, tug'ilib o'sgan qishloqqa, so'lim va dilbar go'shalariga bo'lgan muhabbatdan ulkan va salobatli Vatan tushunchasi va muhabbati o'sib chiqadi:

***Qo'llaringdan ushlab, labingdan tishlab,
Meen olib ketaman seni olisga.
Bir kunlik umrni baxtga bag'ishlab,
Biz etib boramiz kuzgi polizga.***

***...Sentyabr quyoshi silaydi iliq
Yuzimiz, yelkamiz, qo'llarimizni.***

Dunyo muncha go'zal, muncha xush qiliq,

Tangri uzun qilsin yo'llarimizni!

Shoir o'y-mushohadalarida faqat o'tmish va tarixgina emas, balki kelajak ham Vatan bilan, kelgusi avlodlar hayoti bilan bog'liqlik kasb etadi. Inson o'zining kamolot yoshida bu dunyo o'zidan keyin kimlarning qo'lida qolishi, kelgusi avlodlarni kelajakda nimalar kutayotganligi to'g'risida o'ylamasligi mumkin emas. Ushbu ohanglar Vatan, insoniyat taqdiriga qayg'urish ma'nosi bilan to'liq.

Abdulla Sher lirikasida Vatan obrazini yaratishda ko'pincha xalqimiz tarixiga murojaat etish, milliy xarakter asoslarini anglab yetishga intilish, bolalik xotiralarini ko'z o'ngida jonlantirish, tiklash, tabiatga murojaat qilish, ona yurt manzaralariga estetik munosabatda bo'lish orqali, asosan, mahobatli Vatan obrazini bunyod etadi. Shoir she'rlarida Vatan obrazi botiniy va zohiriy mohiyati bilan, xususan, bolalik tasavvurlarining (bu narsa bolalik yillari hayotning sevinchlari va alamlari bilan uyg'unlikda lirik qahramon yuragiga titroq soladi) bokira xotiralaridan sizib chiqadi va lirik xarakterning asosini, dunyoni his etishi va tuyishining hayotiylikini ta'minlaydi:

Qoratog'dan oshib, ul ohang tinar,

Chotqol nafasiga aylanar havo:

Qordek oq choyshabda meni sog'inar

Bir latif, bir shirin, bir momiq dunyo.

Shoir she'rlarida tabiat manzaralari Vatan qiyofasini to'ldiruvchi bir ob'ekt, detalgina emas. Tabiat - shoir nazdida Vatanning bir bo'lagi, emotsional kechinmalar va inson kuch-qudratining asosi, nihoyat, doimo yangilanib, barq urib turuvchi hayot timsoli. Abdulla Sherning lirik qahramoni tabiat og'ushiga singib, uning farahli sururi qo'ynida ko'rinmay ketmaydi, bugungi hayot oqimi zarblarini tuyish va voqea-hodisalar jarayonini estetik baholashda tabiat odil haqiqat bo'lib gavdalanadi. Shoirning bolalik xotiralarida ham tabiat xossalari o'zining yorqin bo'yoqlari, chizgilari bilan davr nafasi va ehtiroslarini yaratishda bevosita ishtirok etadi. Xususan, tabiat manzaralari lirik qahramonning qalb manzaralarini

shunchaki aks ettirmaydi, balki hayot, voqelik ta'sirida lirik qahramon ko'nglida kechgan kechinma va hissiyotlar, fikrlar silsilasi bilan uyg'unlik kasb etadi.

Abdulla Sherni tabiat kuychisi yoki tabiatning shoir-rassomi deyish qiyin. Uning lirikasida sof peyzaj she'rlar ko'p emas. Lekin tabiat hayotning boqiyiligini his ettirishi va shu asosda, narsa va mavjudotning, inson umri, tirikligining ma'naviy-falsafiy mezoniga aylanishi jihatidan ham shoir va tabiat dialektik bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Bir qaraganda ushbu fikrlar erish tuyulishi, «Shoir lirikasida kuz, bahor, tun, tabiat haqida so'z borsa-yu, peyzaj yo'q bo'lishi ham mumkinmi», degan e'tiroz tug'ilishi mumkin. Gap shundaki, shoir she'rlarida tabiat maxsus tasvir ob'ekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Garchand, shoir she'rlarida tabiat jonlantirish detallar tarzida mavjud bo'lsa-da, u psixologik kartina va holatlar mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu hol shoir lirikasidagi inson va tabiat talqinida etakchi mavqeni ishg'ol qilmaydi. Shoir lirikasida tabiat belgilaridagi insoniy jihatlarni tajassum etishi birinchi o'rinda namoyon bo'ladi.

Tabiat faqat inson tirikligining, hayotining jisman asosini belgilabgina qolmay, ma'naviy hayotning ham asosiy tayanchidir. Abdulla Sher lirikasida inson va tabiatning ajralmas nuqtalari ana shunday falsafiy o'rinlarga ega.

“ Dengiz mavjlarida”, “ Qo'llaringdan ushlab” singari she'rlari ona Vatan kechmishining poetik tarixini, taraqqiyot bosqichlarining muhim belgilarini ko'z o'ngimizda gavdalandiradi, zamondoshlarimizning davr va voqelik bilan bog'liqlikdagi kechinmalari, tuyg'ulari manzarasini yaratadi. Shoir zamondoshlarimizning o'tmish, xalq, kelajak, ona sayyora taqdiri bilan bog'liq nuqtalarini go'zal poetik tarzda talqin etarkan, ana shu yo'sinda inson va insoniyat, ona zamin va butkul yer kurrasi oldidagi ma'naviy mas'uliyatni, ma'naviy-psixologik bog'liqlik asoslarini ochib beradi.

Abdulla Sher lirikasida hayotdagi ijtimoiy-ma'naviy masalalar xususida jo'shqin fikr-mushohada yuritish ustuvorlik qiladi. Shoir uslubi uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri - hayot faktlari zaminida poetik obrazlar yaratishdir. U faktlardan teran fikrlar, holat mohiyatidan yuksak ruhli g'oyalar bunyod etadi.

Shoir lirik qahramoni qalbiga olamdan ohanglar oqadi, u bugungi voqelik xossalarini estetik baholar ekan, unga tarixiylik nuqtai nazari bilan yondashadi. Ya'ni Vatanning buguni va istiqbolini uning o'tmishidagi ajdodlarimiz, buyuk ijodkorlar va mard pahlavonlarsiz tasavvur qila olmaydi:

Men shoirman, men Abdulla Sher,

Barloslarning sarkash farzandi

deya hayqiradi shoirning lirik qahramoni.

Abdulla Sher hayot voqealari va zamondoshlarimiz qalbining yangi qatlamlarini poetik tadqiq etish yo'lida muttasil izlanadi. Buning uchun u she'rning keng o'quvchilar ommasiga yetib borishini ta'minlash maqsadida yangi ifoda vositalarni topadi, ya'ni she'r satrlarini fikriy va emotsional obrazlar bilan boyitishga alohida diqqat qiladi. Shu boisdan ham uning chuqur kechinmalar va quyuq fikrlar uyg'unligi bilan yo'g'rilgan lirikasi o'quvchida chuqur his-tuyg'ular va o'y-mushohadalar uyg'otadi.

Ma'lumki, adabiyot so'z san'atidir. Tilimizdagi eng go'zal so'zlarni saralab adabiyotga olib kirish va mo'jizalar yaratish har bir shoirning ulkan mas'uliyatidir. Ijodkor so'zni olmos kabi qadrlab, uning yangi qirralarini kashf etishi lozim.

Abdulla Sher she'riyati ma'nodor va sermahsuldir. Bir so'zning yuz jilosini topa olish, so'z atalmish olmosning yangi qirralarini kashf etish uchun shoirda Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, "iqtidor, mehnatdan tashqari "yana nimadir" kerak bo'ladi". Abdulla Sherda iqqidor, mehnat bilan birga "yana nimadir" borki, shoir she'rlarida har bir so'z olmosdek jilolanaveradi.

2-fasl. **Tabiat tasviri va inson kechinmalari.**

Abdulla Sher jahon klassiklari safidan munosib o'rin olgan Hayne she'rlarini tarjima qilishga kirishgan paytda badiiy mahorat sirlarini mukammal egallagan, o'z uslubi, ovozigga ega shoir sifatida tanilgan edi. Biz Abdulla Sherning ana shu ulug' so'z san'atkori ijodini o'zbek tiliga o'girishga bel bog'lagani sabablarini payqash uchun ayrim biografik ma'lumotlarni ko'zdan kechirishimiz lozim. Zero, asarlari boshqa tilga ag'darilayotgan shoir va uning tarjimoni o'rtasidagi tuyg'ular hamohangligi, nozik qirralarni anglash salohiyati, ruhiy yaqinlik va uslubiy o'xshashliklarni his qilishimiz uchun ham ular yashagan zamon va makon haqida, ijtimoiy hayot to'g'risida tushunchaga ega bo'lishimiz zarur.

XIX asr nemis adabiyotining yirik vakili, samimiy ko'ngil she'riyatiga siyosiy hajviy tanqidni ustalik bilan qo'sha olgan haqgo'y shoir Haynrih Hayne 1797 yilding 13 dekabrda Olmoniyaning Dyusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida tug'ildi. Bo'lajak shoirning tarbiyasi bilan asosan onasi Betti shug'ullandi. Xalq og'zki ijodidan xabardor bu ayol o'g'lida so'zga muhabbat, uning qudratidan hayrat tuyg'usi shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Otasi Samson Hayne Ovropadagi zamonaviy fikrlovchi ko'pchilik singari o'g'lining napoleonchi harbiy bo'lishini orzu qiladi. Napoleonning mag'lubiyatidan so'ng ota –ona Haynrixning savdo bilan shug'ullanishini ma'qul deb hisoblashdi. Lekin uning ham o'zlari singari kichik savdogar emas balki, Hamburgdagi akasi Solomon kabi yirik tijoratchi bo'lishini istashdi. Shu maqsadda maktabni bitkazgan yigitchani Hamburgga amakisidikiga jo'natishdi. Lekin ta'sirchan, to'g'riso'z va mag'rur Haynrix savdo ishlariga mutlaqo qiziqmas, u kecha-kunduz kitob bilan oshnolik qilar, ko'p vaqtini she'rlar yozib o'tkazar edi. Faqat iqtisodiy foyda keltiradigan yumushlar bilan shug'ullanishnigina tan oladigan amakisiga bu ishlari yoqmasdi. Buning ustiga Haynrix amakisining suluv qizi Amaliyani shaydolaracha sevib qoladi. Lekin qiz uning tuyg'ularini rad etadi. Bu samarasiz sevgining og'riqlari shoir she'riyatida o'zining iztirobli va alamli izlarini qoldirgan:

Tushlarda yondirdi meni qilib tang,

Ehtiros, zarkokil, gullar, sho'x ko'zlar,

***Bol labdan otilgan ul achchiq so'zlar,
Alamli qo'shiqlar, qayg'uli ohang...***

***Ey yetim qo'shig'im! Sen qolding faqat,
Bor endi ul go'zal ro'yo izidan,
Ro'yoviy go'zalning o'pib yuzidan,
Ro'yoviy salomim etkaz shu fursat!⁴***

Xullas, amakisnikida o'tkazilgan samarasiz uch yildan so'ng yigit uyiga qaytadi va astoydil o'qishga tutinadi.

Haynrix Hayne 1819-yildan e'tiboran Bonn, Hettingen va Berlin universitetlarida o'qiydi. Ovro'paliklar tafakkuriga jiddiy ta'sir o'tkazgan mashhur faylasuf Gegeldan ma'ruzalar tinglab, bilimini oshiradi. Yigit huquqshunoslik fakultetini juda yaxshi baholar bilan bitirib, diplom olgan bo'lsa-da, bu sohada biror kun ishlamaydi.

1827-yili Hamburg shahrida o'ttiz yoshli Haynening "Qo'shiqlar kitobi" nomli lirik she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Bu kitobga kirgan she'rlarida yosh shoir dunyoning tushunarsiz, hayotning murakkab va odamlar orasidagi munosabatlarning chigalligini o'ta tasirchan yo'sinda tasvirlagan. U she'rlaridan birida odamlar haqida: "Ba'zisi do'st, kelar qoshimga, Ba'zilar dushmandan battar",- deb yozadi. Haynening anglamsiz tuyg'ular haqidagi she'rlari xalq qo'shiqlariga yaqinligi, tushunarli va musiqiy ekani bilan o'quvchilarni o'ziga maftun etardi. Yosh shoir she'rlarida og'zaki ijodda bo'lganidek, lirik qahramonning ichki dunyosini uning kechinmalari va tabiatning tasviri orqali ochib beradi.

1830-yilda Haynrix Haynening "Yo'l lavhalari" nomli ikkinchi kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobda u mamlakat va xalqning ahvolini mardonalik bilan xolis taftish qila oladigan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Kitob yo'l ocherklaridan iborat bo'lib, Olmoniyaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-manaviy darajasini haqqoniy aks ettirganligi bilan ajralib turadi. H.Haynening o'tkir nigohi hanuzgacha ottizta davlatchaga bolinib

⁴ H.Hayne she'rlari Abdulla Sher tarjimasida berilmoqda.

yashayotgan yagona millatning g'arib ahvoli, qoloqlik botqog'iga botganligini ko'radi va afsus -nadomatga to'la achchiq tili bilan uning aybdorlarini fosh etadi.

Umrini nemis xalqining hayotini farovonroq qilish uchun kurashga tikkan Haynening tutumlari o'z manfaatidan boshqa narsani o'ylamaydigan hukmdorlarga yoqmasdi. Shuning uchun ham 1830-yilda u Fransiya ketishga majbur bo'ldi. O'sha yilning iyulida sodir bo'lgan inqilobdan keyingi Parijdagi siyosiy va adabiy hayotda faol ishtirok etadi. Nafaqat nemislarning, balki butun insoniyatning baxtli yashashini istagan shoir bu yerda o'ziga ko'plab xayrixohlar, hamfikrlar topdi va umrining oxiriga qadar qizg'in ijod qo'ynida yashadi.

Haynrix Hayne 1843-yilda insoniyatning hayotini tamomila o'zgartirib yuborish da'vosi bilan chiqqan Karl Marks bilan tanishadi. Marksning ommani baxtli qilishga doir g'oyalariga tarafdor bo'lib yuradi. Lekin kommunistik qarashlarda kishining erkiga zo'rlik o'tkazish ustuvorligini payqab qolgach, Marksdan ham, uning g'oyalaridan ham uzoqlashadi. Ovro'padagi qaynoq ijtimoiy-siyosiy hodisalar ta'sirida shoirning poetic iqtidori o'sha yillarda ko'proq siyosiy yo'nalishdagi she'rlarida namoyon bo'ldi. Haynening "Sileziya to'quvchilari" she'ri, "Germaniya. Qish ertagi" dostoni, "Qullar kemasi" balladasi yuksak badiiy kuchidan tashqari ijtimoiy yo'nalganligi bilan ham o'sha davr o'quvchilarini e'tiborini tortadi. Shoirning chet eldaligida yozilgan asarlari orasida 1832-yilda yaratilgan "Fransuz ishlari" asari fransuz hayotining o'ziga xos yilnomasi sifatida e'tirof etilgan. 1842-yilda bitilgan "Atta Troll" dostoni alohida e'tiborga molik bo'lib, unda hayvonlar timsoli vositasida tepsa-tebranmas, yurt ravnaqi uchun biror narsa qilishga qodir bo'lmagan millatdoshlar ayovsiz hajv e'tiladi. Haynening 1854-yilda yaratgan "Lyutesiya" asari ham fransuz hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Haynrix Haynening ijodiy taqdirida uning "Romansero" (1851) she'riy kitoblari alohida ahamiyatga egadir. Bu asarlar nafaqat shoir ijodi, balki nemis millati she'riy tafakkuri taraqqiyptida jiddiy voqea bo'ldi. O'n uch yil davimida vatandan yiroqda, sarsonlikda yurgan otashin yurtsevar shoir uni millatga mehrsizlikda ayblagan kishilarga qarata "Germaniya. Qish ertagi" (1844) kitobida yozgan so'z boshisida: Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-

voh qilmasdan, iztirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg'in joyimga qaytmoqdaman",- deb yozganda bashorat qilgan edi. U yaqinlari bilan uchrashgach, shu yili yana Fransiyaga qaytib ketdi.

Uning ona yurt bilan vidolashuvi quyidagi misralarda ta'sirchan ifodalangan:

***Shoshma darg'a, shiddatli darg'a,
Bandargohga bir zum qaytay men –
Xush qol deyin suluv dildorga,
Ovrupoga vido aytay men.***

***Sachrar qonim, ko'zimdanda sachrar,
Ko'kragimdan otilar qonim,
Qonim bilan bitgayman endi
Dardlarimning qonli dostonin...***

Haynening ushbu misralarini Abdulla Sher tarjimasida o'qir ekanmiz, kema, cheksizlik ramzi bo'lgan dengiz Sharqda ham ayriliq va judolikning boshlanish ramziga aylanganini payqaymiz. Zero, Alisher Navoiyning firoq haqidagi g'azallaridan biri ham aynan kemanding safarga chiqishi bilan boshlanadi:

***Har qachonkim kemaga ul Oy safar raxtin solur,
Mavjlig' daryo kebi oshufta ko'nglum qo'zg'olur.***

Haynrix Hayne 1856-yilning 17- fevralida Parijda vafot etdi. Haynening buloq suviday tiniq va jarangli she'riyati o'zbek kitobxonlarini ko'pdan buyon qiziqtirib keladi. Shuning uchun ham uning asarlari turli davflarda Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, Abdulla Sher, Xayriddin Sulton kabi ijodkorlar tomonidan o'zbekchaga ag'darilgan.

So'z mo'jizadir. So'z o'zganing holatini, ruhiyatini, qalbini anglash vositasidir. So'z-inson sezgilarini o'zgaga yuqtiradigan sehrli qurol. So'z-insonga xos ichki va tashqi dunyoning tarjimoni. Ammo u bu fazilatlariga faqat tafakkur otiga mingachgina erishadi, xolos. Binobarin, ayol zoti xushbichim libosi, daryo - qirg'og'i, tabiat esa dov-daraxtlari bilan go'zal va to'kis bo'lganidek, so'z ham teran ma'nosi bilan hayotbaxshdir. So'zning qudrati, go'zalligi, ma'nodorligi, ta'sir kuchi,

ayniqsa, she'rda aniq ko'zga tashlanadi⁵. She'riyat haqida rus shoiri I.L.Nekrasov o'z she'rlaridan birining qo'lyozmasi hoshiyasiga bunday so'zlarni yozgan ekan: "O'xshatish - she'riyat, kartina-she'riyat, voqea she'rbop bo'lishi mumkin, tabiat-she'riyat, his-tuyg'u-she'riyat"⁶. Tabiat barcha san'at turlari va janrlari singari lirikaning ham boqiy mavzularidan biridir. San'at asarlarining qaysi birini olib qaramaylik, undagi peyzaj tasvirida albatta inson ishtirok etadi, tabiatning u yoki bu xossasi unga bo'lgan inson munosabati orqali qayta kashf etiladi; shu sababdan badiiy asardagi tabiat kartinalarida emoçional bo'yoqdorlik ufurib turadi.

Shu ma'noda peyzaj lirikada inson his-tuyg'u va kechinmalarining yorqin tajassum topishi uchun fon va ayni vaqtda organik hujayra vazifasini o'taydi. Abdulla Sher tarjimasida Hayne chizgan poetik manzaralar ko'z o'ngimizda yaqqol jonlanadi:

***Qasrlaru tog'lar qaraydi
Oyna qilib Rayndaryoni;
Elkanimni shamol taraydi,
Yaraqlatar quyosh har yonni.***

***O'ynar daryo, tovlanadi suv,
Oltin mavjlar meni aylar mast;
Unut bo'lgan ul totli tuyg'u
Uyg'onadi qalbimga payvast...***

Endigi kunda inson xarakterining murakkab ichki olami, ma'naviy dunyosining hayot hodisalari bilan bog'liqlikdagi ko'rinishlarini yuksak aqliy salohiyat, falsafiy teranlik bilan badiiy tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Abdulla Sher singari qator shoirlarning izlanishlarini ustozlar tajribasidan, jahon adabiyoti namoyandalari ta'siridan, mumtoz she'riyat an'analariidan ajratib o'rganish mumkin emas, albatta. O'tmishdagi daho

⁵ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.160-bet.

⁶ Olimjon H.. III tomlik, "Tanlangan asarlar", III tom , 132-bet.

san'atkorlarning tajribalariga tayanib, XX asr voqeligini, ijtimoiy hayot yangiliklarini o'z mohiyatiga singdirgan ajoyib poetik asarlar yaratish, shu jarayonda o'tmish an'anasining eng yaxshi xislatlarini o'zlari yaratgan yangilik bilan bog'lash hozirgi she'riyatimizda yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, bu yo'nalish Abdulla Sher tarjimalarida ham alohida ko'zga tashlanadi.

Bu shoirlar ijodiy olamining boyib borishida, har bir ijodkor dunyoqarashining ko'lamdorlik kasb etishida, estetik prinsiplarining shakllanishida, fikrlash doirasining keng miqyosli tusga ega bo'lishida yetakchi o'rin tutadi.

Tabiat fasllarining almashinib turishi dialektikaning muqarib tabiatiga xos o'zgarma qonuniyati taqozosidir. Shu bilan barobar, har bir fasl ikkinchi bir faslning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Ushbu holni bevosita adabiy jarayonga tatbiq etgini keladi. Zotan adabiyotda, jumladan, she'riyatda ham vaqt o'tishi bilan yangi-yangi avlodlar to'liqini o'rin almashadi. Har bir avlod vakillari o'ziga xos ovozi, uslubi, manerasi, g'oyaviy-estetik prinsiplari, mavzusi bilan o'zining badiiy dunyosini yaratgan ekan, bu xususiyat mazkur avlodning qiyofasini, tabiatini ham belgilab beradi. Ularning mazkur davr she'riyati taraqqiyotida tutgan o'rni va rolini, badiiy-estetik tafakkur rivojiga qo'shgan ulushini xarakterlash poeziyaning aynan shu bosqichdagi umumiy taraqqiyoti haqida fikr yuritish imkonini yaratadi. Xususan, har bir yangi avlod poetikasi, ijodiy izlanishlari betakror tarixiy sharoit, yangi ijtimoiy voqelik bilan xarakterlanadi. Shu ijtimoiy voqeliklarning o'zaro farqlanishi, bir-biriga o'xshamasligi badiiy asardagi obrazlar qurilishida, poetik obrazlarning estetik vazifasida, shoirlar ijodining bir-biridan ajralib turishida ham namoyon bo'ladi.

O'tmishdagi daho san'atkorlarning tajribalariga tayanib, Haynening mo'jizakor qalami tufayli XIX asr voqeligini, ijtimoiy hayot yangiliklarini o'z mohiyatiga singdirgan ajoyib poetik asarlar yaratish, shu jarayonda o'tmish an'anasining eng yaxshi xislatlarini o'zlari yaratgan yangilik bilan bog'lash she'riyatda yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, bu yo'nalish Abdulla Sher tarjimalarida ham, o'z ijodida ham alohida ko'zga tashlanadi.

Shoir biror mavzu yuzasidan qalam tebratar ekan, unga albatta, voqea, tabiat, his-tuyg'u, fikr va kechinmalar turtki bo'ladi. She'r kitobxon qalbini hamisha maftun etuvchi, unga estetik zavq bag'ishlovchi, uni nafosatning shaxsiy olamiga olib kiruvchi shaklga ega bo'lmog'i lozim. She'rning qay darajada muvaffaqiyatli yozilishi ko'p jihatdai shoir kechinmalariga bog'liq.

She'r qachonki chin dildan, sof ilhom bilan yozilgandagina yashaydi. Hatto haqiqiy she'r bir zarb bilan yoziladi, degan fikrlarga ham duch kelamiz. Bu ruhiy holat bilan bog'liq bo'lib, adabiyotshunoslikda u lirik kechinma deb ataladi. Lirik kechinma bag'rida ham hissiy, aqliy, ham oddiy fikrlash mavjudligiga qarab oniy lirik kechinma va xotira lirik kechinma deya ataladi⁷.

Shoir o'z hislarini qalamga ko'chiradi. Fikrlarini hayotiy tafsillar bilan asoslashga intiladi-ki, she'rni o'qiganimizda tabiiy lavhalarga hamohang bo'lgan asosli vaziyat ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni jonlantirish, shaxslantirish orqali hosil bo'luvchi tashxis san'ati qo'llangan ushbu parchada lirik qahramonning ruhiy holatini ifoda etadi:

...Daryo mayin, daryo dilkusho,

Zarhalini sachratar nekbaxt,

O'z qa'rida asrar u ammo

Ajal bilan zulmatni hg'ar vaqt.

Ichi zulmat, usti yaltiroq –

Suratisan yorimning, daryo!

Sirtidan boqsa sen ham sho'x, quvnoq,

Mehribonsan, shafiqsan go'yo.

Shoir voqealar silsilasini davom ettirar ekan, ularning ketma-ketligini tashbehi silsilaiband san'atini qo'llash orqali bir biriga zanjir misoli bog'laydi. Oshiq ma'shuqaning jamolini xotirjam ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishni orzu qiladi:

⁷ Sarimsoqov B.I. Badiylik asoslari va mezonlari.-Toshkent: 85-bet.

...Serquyosh dunyoyu gullarni unut,

Mening shirinim!

O'rgangin sen endi harir libosga,

Qo'lingni uzatgin jarangdor sozga,

Nikoh qo'shig'ini kuyla men uchun;

Olamga taratsin ul qo'shiqni tun.

(H.Hayne. "Yoshlik iztiroblari").

Ijodkorning boshidan o'tkazgani oddiy fikrlarni tashkil etishi mumkin. Lekin u o'z ijodiga mosini tanlaydi, eng muhim va poetik qimmatga ega bo'lgan qirralarni ajratadi. Saralangan qirra lirik kechinma oqimini o'zida tashuvchi, uning u yoki bu yo'nalishidagi tebranishlarini ifodalovchi badiiy borliqqa aylanadi⁸. Yuqorida biz mazkur fikrlarning badiiy ifodasining guvohi bo'ldik. She'rdagi voqelik shoirning o'z boshidan kechirganlari bo'lganligi bois lirik qahramon shoirning o'zidir.

Bu hol shoirona vaziyatni namoyon etish, his-hayajonni to'kib-solish, shu voqea mohiyatini ochish, yohud muayyan an'anaviy tushuncha-tamsillar, obraz, obraz-ifodalar atrofida suxansozlik qilish, lutf ko'rsatish niyatining mevasidir.

Darhaqiqat, oniy lirik kechinmalarni saqlash uchun uni otashnafas she'rga aylantirishdan o'zga chora yo'q. Jahon she'riyatining aksariyat sara asarlari bevosita oniy lirik kechinma og'ushida yaratilgan asarlardir. She'rda qo'llangan tabiat tasvirining go'zal ifodasi shoirning jo'shqin va samimiy e'tirofi zahiriga singib borarkan, o'quvchi undan shoir shaxsiyatining, fikriyoti va lirik qahramon hissiyatining sirini anglashga intiladi, bu esa she'riyatning ajib sehri samarasidir.

San'at insoniyat taraqqiyotining har bir ijtimoiy-tarixiy bosqichida tabiatning yangi-yangi xususiyatlarini kashf etib kelmoqda. Shoiralar tabiat xossalari idrok etish jarayonida undan o'z ideallarini nurlantirish uchun oziq oladilar. Shu jihatdan moziy, tabiat obrazlari poetik asarlarda ijtimoiy maqsad va muayyan g'oyalarning in'ikosi sifatida ham gavdalanadi. Haynening "Asl haqiqat"

⁸ Sarimsoqov B.I. Badiylik asoslari va mezonlari. Toshkent: 2004. 87-bet.

she'rida oddiy tabiat tasviridan mutlaq haqiqat – dunyoning o'tkinchiligi, umrning foniyli haqidagi xulosalarga kelinadi:

***Kelganda b̂ahoriy yorug' kunduzlar
Kurtaklar barg yozar, g'unchalar kular;
To'lin oy sochadi kumush yog'dular,
Osmonni to'ldirar shaffof yulduzlar;
...Va lekin qo'shig'u gulu yulduzlar,
To'lin oy, quyoshu go'zal ul ko'zlar
Quvonch baxsh etmasin bizlarga qancha,
Bu foniyy dunyoda bari vaqtincha.***

Bu o'rinda peyzaj lirik qahramonning his-tuyg'ulari va fikrlari bilan uyg'unlikda muayyan g'oyaviy-estetik maqsad uchun bo'ysundiriladi. Peyzaj tasviri tashqi dunyoning ob'ektiv ifodasi sifatida namoyon bo'lishi bilan bir qatorda badiiy asarda chuqur emotsional kechinma va fikrlarni o'ziga singdirgan holda yuzaga keladi. Sababi, peyzaj tasvirini tashkil etgan holat va kartinalar doimo ijodkorning fikr va his-tuyg'ularini o'zida mujassamlashtiradi.

Lirikaning ob'ekti - inson. Shoir lirik qahramonining ruhiy holati va kayfiyatidan kelib chiqib, tabiat kartinalariga mazmun, rang, ohang va bo'yoqlar ato etadi, ya'ni tabiat xossalarini qayta yaratadi, u orqali o'zining emotsional kechinma va his-tuyg'ularini ifodalaydi, asosli tasvirlar yaratadi:

***...Men kuyladim tog'larga chiqib,
Qo'shiq aytdim yayrab, jo'sh urib.
Men yig'ladim borib dengizga
Quyosh cho'kkan hududni ko'rib.***

***Yuragim ham xuddi quyoshdek
Lovullaydi yog'duga to'lib,
U ham cho'kdi ishq dengiziga
Ulkan bo'lib, go'zal cho'g' bo'lib.
(H.Hayne. "Zerafina" turkumidan 4-qo'shiq).***

“Poeziyaning asl prinsiplaridan biri - bu tasvir va qiyoslardagi bo'yoqlar garmoniyasidir. Garmoniya manzaraning hissiz va jonsiz bo'lib qolmasligini ta'minlaydi. Bir rang sezilmagan holda ikkinchisiga o'tishi kerak, hatto eng xunuk narsa ham ko'ngilga xush narsa bilan birgalikda tasvirlanganda o'z tabiatidagi xunuklikda ma'lum bir chiroyli narsani ifodalashi lozim yoki aksincha”⁹.

Demak, tabiatning insonga ko'rsatuvchi eng buyuk ta'sir kuchlaridan biri-bu uning fikr va his-tuyg'u uyg'otishidir. Sharros urib quygan yomg'ir, oppoq o'rkachli pag'a-pag'a bulutlar, gir-gir aylanib tushib kipriklarimizga qo'nguvchi laylak qor, dengiz shovullashi, shamollarning munis ertagi, momoqaldiroq sadosi, tog'lar salobati - hamma-hammasi muayyan o'y-fikrlar va his-tuyg'ular silsilasini vujudga keltirish bilan barobar ana shu tashqi dunyoni idrok etishga bo'lgan kuchli intilishni yuzaga keltiradi. Bu intilishning mohiyati ob'ektiv voqelikni yanada chuqurroq idrok etishdan iboratdir.

Tabiat tasviri, lirik kechinmalar orqali shoirning teran tuyg'ulari va fikrlaridan, shuning bilan birgalikda, davr, voqelik, odamlar, hayot to'g'risidagi, insonning voqelikdagi o'zni xususidagi chuqur o'y-mushohadalaridan voqif bo'lamiz. Bunday asarlarda tabiat faqatgina fon emas, balki asar umumiy g'oyasi va mazmunining ajralmas qismiga aylanadi va ma'lum darajada shoir kechinmalarining, u ilgari surmoqchi bo'layotgan g'oya va mazmunning bir qismi bo'lib qoladi.

Abdulla Sher tarjimasidagi Haynrih Haynening har bir peyzaj she'rini uning lirik e'tirofidek qabul qilamiz. Shoirning she'rlarida peyzaj insoniy ruh, muhabbat, dard, sevinch, xullas, emotsional kechinmalarni o'ziga singdirgan holda tasvirlanadi. Barcha poetik vositalar ana shu maqsadga xizmat qiladi. Shoir tasvirida tun, oqshom, bahor suvlari, dengiz manzaralari, o'tloqlar va boshqa omillarning o'quvchiga ta'sir ko'rsatishiga, emotsional kechinma va fikr uyg'otishiga sabab, shoir ular orqali inson qalbini, insonning ichki dunyosini ochib beradi:

⁹ Gelvetsiy K.A. Soch. V dvux tomax. T.M. 1973, s.139.

**...U tark etar gavjum shaharni,
O'rmon ichra izlaydi orom.
U tinglaydi quvnoq qushlarni,
Barglar tili uni etar rom.**

(H.Hayne. "G'amgin yigit" she'ridan).

Haynedan tarjima qilish jarayonida Abdulla Sher ham xuddi shunday tuyg'u va lirik kechinmalarni boshdan kechirgandek tuyuladi. Chunki Abdulla Sherning lirik asarlarida ham shunga o'xshash tasvirlarni kuzatamiz:

**Tizzangga yetmagan daryo quchoqlar
Qanotsiz baliq deb boldirlaringni.
(Olisda, bilmayman, yig'armi-bog'lar
Shaharlik sayyohlar chodirlarini.**

(Abdulla Sher. "Qo'llaringdan ushlab" she'ridan).

Ko'rinadiki, lirikada peyzajning vazifasi g'oyat keng va rang-barangdir. U atrof-tevaragimizdagi narsa va buyumlar tabiatidagi go'zallikni namoyon etish orqali estetik didimizni o'stiradi; shuningdek, ona o'lka timsoli, uning poetik obrazlari sifatida ham tajassum topadi.

Tabiat va inson mavzusining poetik tadqiq etilishi, yuqorida ta'kidlanganidek, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy hamda intellektual tafakkuri taraqqiyoti bilan uzviy aloqador. Shu jihatdan adabiyotshunos H.Yoqubovning "Tabiat va ijtimoiy turmush obrazlari ham shoirning ularga qanday qarashi (qanday tushunishi) orqali insonshunoslik to'g'risidagi tasavvurimizni, insonning mohiyati to'g'risidagi bilimimizni ma'lum darajada boyitadi. SHoir voqelik hodisasiga (xoh tabiiy, xoh ijtimoiy hodisa bo'lmasin, bari bir) o'z munosabatini ifodalash orqali xarakterning lirik formasini yaratadi"¹⁰, degan fikri g'oyat asoslidir.

Hududsiz tabiat og'ushida inson nahotki bir zarra misoli bo'lsa; vaqtning shafqatsiz odimlari qarshisida, oniy umrini o'ylaganda, o'lim oldida shunchalik vola sezadimi; yo'qsa, bir martagina berilmish ushoqqina umrning mazmuni

¹⁰ Yoqubov H.I. G'oyaviylik va mahorat. Toshkent .1963, 83-bet.

nimada; inson o'zining tabiat bilan bog'liqligini qanday his etadi? Ana shu masalalarga berilgan poetik javobdan biz shoir zamondoshlari xarakteri, ma'naviy-psixologik dunyosidan, zamondoshlar faoliyatining ijtimoiy holatidan voqif bo'lamiz. Hayne ijodida tabiat va inson mavzusi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy mohiyatiga ko'ra ham ana shunday dolzarb masalalardan biri sifatida muhim xarakter kasb etadi.

Tabiat, tirik mavjudot o'z qonuniyatidan kelib chiquvchi ma'lum qarama-qarshiliklardan iborat; ularning garmonik uyg'unlik kasb etish onini ilg'ab olish oson emas. Abdulla Sher tarjima jarayonida ana shu nozik soniyalar mohiyatini ilg'ay va anglay biladi, ana shu nozik onlar zamiriga yashiringan teranlik va go'zallikni hayot, inson, umr va mangulik bilan uyg'unlikda talqin etadi. Bu jarayonda lirizm sizib chiquvchi kayfiyat va ohang ham, hayotning boqiyliigi ham, inson umrining ezguligi ham, xullas, hayot va tiriklik mohiyatining falsafiy talqini ayon bo'ladi.

She'riy asarlarda poetik fikr doimo emotsional bo'yoqda, tuyg'ular esa, fikr nuri bilan yoritilgan bo'ladi. His-hayajon va fikr-mushohadaning bu xildagi uyg'unligi lirikaning bosh qonunlaridan biridir; u lirik she'riyatning asl tabiatidan kelib chiqadi va uning mohiyatini tashkil etadi. V. G. Belinskiy lirik she'riyatning o'ziga xos belgilarini ko'rsatar ekan, shunday yozadi: "Bu sub'ektivlik saltanati, bu ichki dunyo o'z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki elementda tuyg'u va ong doirasida qoladi; bunda ruh tashqi reallikdan o'tib yashirinadi, tashqi olamni o'zida aks ettirgan ichki hayotning mislsiz jilvalarini poeziyaga hadya qiladi. Bunda shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz"¹¹.

Abdulla Sherning tarjimonlik mahorati, u o'zbek tiliga o'g'irgan Hayne she'rlarining o'ziga xosligi va estetik ta'sir kuchi shundaki, bular o'quvchini tushkun kechinmalarga, samarsiz o'ylar girdobiga tortmaydi. U hayotning abadiyligi va inson umrining ezguligini poetik tadqiq etarkan, har kimga nasib

¹¹ Belinskiy V.G.Tanlangan asarlar. T:1955, 134-bet.

etgan qisqa umrni go'zallikka, mangulikka baxshida etish va shu asosda, o'tkinchi umrni qadrlash va uning manguligini ta'minlash falsafasini ilgari suradi, hayot qo'shig'ini kuylaydi:

...Motam tutma, quyoshga, jonim!

Nur yitmadi dengiz qa'rida;

Shu lahzadan boshlab ham o'zi,

Ham bor tafti mening bag'rimda!

(H.Hayne. "Yoshlik izzitoblari". 6-qo'shiq).

Yuqoridagi peyzajning ajib namunasi insonni falsafiy mulohazaga chorlaydi. Falsafiy lirikada tabiat obrazi insondan, jamiyat hayotidan, insonning ma'naviy-psixologik olamidan ajratib olingan holda alohida tasvir ob'ektiga aylanmaydi. Lekin, eng asosiysi, falsafiy lirikada u katta falsafiy mazmun va g'oyalarni ifodalashga bo'ysundirilgan bo'ladi. Falsafiy lirikada ham tabiat va inson garmonik bog'liqlikda o'rganiladi.

Falsafiy lirikada inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikning estetik, emotsional va axloqiy jihatlari shoirni ma'lum darajada qiziqtirsa-da, bu narsa falsafiy she'rda birinchi planda turmaydi; bu o'rinda shoir uchun tabiat va inson o'rtasidagi aloqadorlikdan yuzaga kelgan fikr muhimdir. Bu o'rinda ham tabiat va insonning garmonik bog'liqligi taqozosi bilan yuzaga kelgan mohiyat shoirning diqqat markazida turadi:

Qora tunnig yovuz o'g'li, boq shu tariqa –

Tund tikilib bizga berar qora fotiha.

Donli kitob tutganicha turar – na dahshat!

Ibodati shakkoklikdir, so'zlari – la'nat.

(H.Hayne. "Ro'yolar" turkumi. 7-qo'shiqdan).

Lirik qahramonning poetik niyati va g'oyasiga ko'ra sokin, faraxli oqshom **qora** tunga, ezgu niyatlarni ifodalashi lozim bo'lgan tilak **qora** fotihaga, ilohiy maqsadlarda qo'lga olinishi lozim bo'lgan kitob ham ruhoniylar Donlining qo'lida **dahshat**, Yaratguvchi va banda o'rtasidagi ruhiy muloqot shakli bo'lmish ibodat esa **shakkoklik**! Haynening olmos iste'dodi tufayli tabiat tasviri ham lirik

qahramonning ruhiy kechinmalari va ko'ngil manzaralari bilan uyg'unlashib ketadi. Abdulla Sher ana shu holatni g'oyat mohirlik bilan o'zbek tiliga ag'dara olgan.

Abdulla Sher qalami orqali o'zbek tilida jaranglagan Hayning har bir she'ri tom ma'noda aktual va chuqur ijtimoiy mazmun bilan yo'g'rilgan. Shoir she'riyati inson xarakterini ochish, sof muhabbat, ezgu e'tiqod orqali hayot, ertangi kunga ishonch bilan qadam qo'yishga chorlash kabi g'oyaviy-estetik vazifalarni bajaradi.

II BOB. TARJIMA VA IJODIY TA'SIR MUAMMOLARI

1-fasl. Lirikada an'ana va o'ziga xoslik.

Lirika o'zining tadrijiy taraqqiyot qonuniyatlariga ega bo'lib, shunga binoan, vaqt o'tgan sari bayondan tasvirga, tashqi go'zallik vasfidan ma'naviy olam ifodasiga intilish kuchayib boradi. Uning mohiyatini bora-bora "aytish"dan ko'ra ko'proq "ko'rsatish" tashkil eta boshlaydi. Bu holni lirikaning umumiy taraqqiyot qonuniyatlarida ham, biror so'z san'atkorining individual ijodiy bosqichlarida ham kuzatish mumkin. Har qanday san'at namunasi, jumladan, badiiy adabiyotning tarkibiy qismi bo'lmish she'riyat ham, hayotga yaqinlashgan sari uning ta'sirchanligi kuchaya boradi, adabiy-estetik funkuiyasini to'laqonliroq bajara boshlaydi.

Chinakam so'z san'atkorlari an'anaviylikning kuchliligi natijasida ommalashgan tasvir vositalari hamda usullaridan qanoatlanmay qoladilar. An'anaviy tashbehlar va boshqa badiiy unsurlarning nisbatan cheklangan maydonida insoniy kechinmalarining rang-barang va bepoyon ufqlariga intiladilar. Qalb kechinmalarini haqqoniy va yorqin ifodalash, ruhiy-psixologik talqinni birinchi planga qo'yish shoir lirik qahramonini she'rxon bilan ma'naviy-hissiy yaqinlashtiradi, ularni sirdosh va dildosh qiladi. Shoir "men" ining umuminsoniylik kasb etishida buning ahamiyati kattadir¹².

Individual shaxsning qalb nidolari, kechinmalari, e'tirofi lirik she'r mundarijasini tashkil qiladi. Shu boisdan ham lirikada tasvir emas, e'tirof muhim o'rin tutadi. Lirik qahramonning qalb nidolarini ifodalash birinchi o'rinda turadi.

Lirikada muallif obrazi uning adabiy mahsuloti bo'lmish asarlarida u yoki bu darajada o'z aksini topadi. Shoirning dunyoqarashi, orzu-intilishlari, g'oyaviy yo'nalishi, qolaversa, insoniy fazilatlarning izlarini yaqqol his qilish mumkin. She'r oldindan rejalashtirib yaratilmaydi. U ijodkor qalbi va shuuriga ta'sir ko'rsatuvchi biror vaqea-hodisaning turtkisi tufayli yoki shoirni qiynayotgan biror hayotiy muammo asosida vijudga keladi. Lirik janrlar o'zining ixchamligi, lahzalik

¹² Jo'raev H. Lirik qahramon va muallif shaxsiyati-T: "Fan" nashriyoti, 2008. 45-bet.

kechinma hamda tuyg'uning badiiy ifodasi bo'lganligi uchun ham ortiqcha tasvirlarni, keng epik bayonni o'ziga sig'dirmaydi.

Ovrupo, xususan, rus adabiyotshunosligida ijodkor shaxsiyati bilan badiiy asar o'rtasiga muvofiqlik bo'lmasligi mumkinligi haqida turlicha fikrlar bayon etilgan. Taniqli adabiyotshunos N.Xrapchenko ham asarlarida shaxsiyati aks etmasa-da, genial asarlar yarata olgan san'atkorlar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi.¹³

Ammo, spetsifikasiga ko'ra, lirikada shaxsiyat ta'siri bo'lishi ijobiy holdir. Bu masalaga Aristotelning "Poetika" asaridayoq ilmiy ta'rif berib o'tilgan: "San'atkor "o'z shaxsini o'zgartirmasdan", "o'z- o'zligicha qolib" tabiatdan nusxa ko'chirishi mumkin. YA'ni u muayyan hayotiy hodisa munosabati bilan o'z o'y va hislarini ifoda etish bilan cheklanishi mumkin. Bu holda lirika maydonga keladi."¹⁴

Belinskiyning quyidagi ta'rifida ham lirik tur va ijodkor shaxsiyati masalasiga ma'lum daraja oydinlik kiritilgan: "Poeziya bu sub'ektivlik saltanatidir, bunda shoirning shaxsiyati birinchi planda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat va faqat u orqaligina qabul etamiz, anglaymiz."¹⁵

Shoir ijodining qimmati uning sof shaxsiy kechinmalari, tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimai holi faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi. Lirikada fikr va his umuminsoniy ekanligini ta'kidlab, adabiyotshunos I. Sulton "lirik-qahramon - lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning ustun jihatlarini, ya'ni umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarni tashuvchi shaxsdir,-degan xulosaga keladi,-u shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir".

Tabiiyki, zamon o'tgan sari badiiy saviyasi charxlanib boruvchi she'rxonni shakliy go'zalliklar, umumiy tavsiflar, yaltiroq va dabdabali vasflar qoniqtirmay qo'yadi. Chin iste'dod sohibi bo'lgan ijodkor o'z qalbi va ruhiyatini lirik tadqiq qilish natijasida ruhiy-ma'naviy iqlimlarni zabt eta boradi va betakror uslubi bilan mumtoz she'riyatda o'z o'rnini topadi.

¹³ Xrapchenko M.B. Tvorcheskaya individualnost pisatelya i razvitie literaturi. M., 1970. 73-74-bet.

¹⁴ Aristotel. Poetika. T.G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. -----bet.

¹⁵ Sulton I., Adabiyot nazariyasi – T: "O'qituvchi" nashriyoti, 1980 y. 234-235-bet.

Adabiyotda ma'lum bo'lgan, boshqalar tomonidan kuylangan g'oya va mavzularni kuylash, ular tomonidan qo'llangan tasviriy vosita va obrazlardan foydalanish, adabiy hayotda butun O'rta asr davomida ko'pgina Sharq mamlakatlarida tabiiy hol bo'lgan masalani o'rganish birinchi navbatda an'ana bilan bog'liqdir. Sharq klassiklarining ijodida shartli an'anaviy holatlar juda ham katta o'rin tutadi. Bu hol ular ijodining asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan bog'langan¹⁶. Shu jumladan, Abdulla Sher ijodi ham Sharq xalqlari adabiyotidagi an'analar bilan chambarchas bog'liqdir.

Lirik qahramon - oshiqning ma'shuqasini sog'inishi, umuman olganda, g'azaldagi g'oyaviy fikrlar mumtoz adabiyotimiz an'analarga xos. Lekin ko'ngil izhori zamonaviylik kasb etadi. Biz quyida keltirayotgan namunadagi ko'rinishlar shoirning an'analarga o'zgacha yondashganining alomatidir.

Mumtoz adabiyotimizning yuksak namunalarida yorning o'rim sochlarini ko'rib oshiqning fig'on chekishi an'ana sifatida ko'plab shoirlar ijodida uchramoqda. Navoiy lirikasida shunday bayt bor:

Ko'ngillar nolasi, zulfing kamondin nogahon ko'rgach,

Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko'rgach.

Bu misralarni adabiyotshunos olim A. Hayitmetov shunday tahlil qiladi. "Bu o'rinda yorning soch o'rimlarini ko'rib oshiqning afg'on chekishi hamma shoirlar ijodida uchraydi. Lekin bu baytning originalligi shundaki, Navoiy tasvirida oshiqning faryod va nolalari kuchli, toqat qilib bo'lmaydigan, butun mahallaning diqqatini tortadigan noladir. Ular iniga ilon bosh suqa boshlaganda jon talvasasida qichqirishga boshlagan qushlarning nola va faryodiga o'xshab ketadi. Oshiq ko'nglidan ko'tarilgan nolani bu xilda hayotiy manzara orqali gavdalantirish natijasida Navoiy lirik tasviri ichki ruhiy xarakter kasb etgan. Sharq shariyatida yorning qaddi haqida gap borganda albatta sarv daraxti eslatib o'tilganidek, uning sochi ta'riflanganda ilon bilan bog'liq bir gap bo'ladi. Navoiyning ushbu baytida ham shu an'ana saqlangan"¹⁷.

¹⁶ Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. T. "O'qituvchi", 1993 y. 129-bet.

¹⁷ Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. T. "O'qituvchi". 1993, 62-bet.

Navoiy bu o'rinda ko'ngilni qushga, yor sochini esa ilonga qiyoslaydi. Oshiq yor sochini nogahon ko'rib qolganidan keyingi ko'ngilning holati huddi ilonni ko'rib chug'ur-chug'ur qilib, sarosimaga tushgan qushlarga qiyoslanadi. Darhaqiqat, inson qalbi biror narsadan, hodisadan o'ta hayratlanganda sarosimaga tushgan qush kabi o'ynoqi, tezkor va isyonkor bo'ladi. Ilon garchi yoqimtoy maxluq bo'lmasa-da, mumtoz an'analarimizda uni shakliy jihatlarga asoslangan holda sochga qiyoslaydilar. Lekin Navoiy ilon obrazining tashqi ko'rinishiga asoslanibgina qolmay, uning xarakter xususiyatlari orqali ham inson qalbining nozik kechinmalarini ochib beradi. Bu, albatta, Navoiyning o'ziga xos uslubi edi.

Zahiriddin Muhammad Boburda ham soch ta'rifining mumtoz ko'rinishlariga duch kelamiz:

Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana,

Tiyra bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana.

Ana shu an'anaviy obrazli ifoda shoir Haynrih Hayne ijodida ham qo'llanilgan bo'lib, Sharq she'riyatining bilimdonlaridan bo'lgan Abdulla Sher tarjimasida ham alohida ahamiyat kasb etib, shoirning lirik qahramoni sochni mug'ombir shayton to'qigan to'rga o'xshatadi:

Zar kokili go'zal begumon,

Go'zal boshga bezakdir, ko'rkdir,

Kokil emas, mug'ombir shayton

Qasdim uchun to'qigan to'rdir.

Bu o'rinda qo'llanilgan jonlantirish san'ati ham mumtoz an'anamizning ajib namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy quyidagi baytda oshiqning ishqini shunday ta'riflaydi:

Ashk ichinda g'arqamen zulfingni tutqaymanmu deb,

O'ylakim tojir tengiz ranjin chekar savdo uchun.

A.Hayitmetov mazkur baytni quyidagicha tahlil qiladi: "Dengiz to'lqinlari va uning boshqa azoblarini chekib savdo ahllari oxiri o'z maqsadlariga erishganlari

kabi men ham ko'z yoshi to'ka-to'ka, oh-voh bilan oxiri sening visolingga erishsam, go'zal sochlaringni o'z qo'lim bilan ushlasam, silasam ajab emas" , - demoqchi sevgilisiga.

Bu xil satrlarda Navoiyning asosiy maqsadi o'z lirik qahramonining ichki dard, hayajon va izzitroblarini, qalb intilishlarini, ko'zga ko'rinmas qayg'u va hasratlarini ko'rinarli, sezilarli qilib tasvirlashdir"¹⁸.

Navoiy lirikasida soch obrazi ko'proq oshiqning ma'shuqaga erishishi orzusida keltiriladi. Bu an'anani davom ettirgan Abdulla Sher tarjima jarayonida oshiqning ma'shuqa huzuridagi holatini ifodalar ekan, Hayne lirik qahramoni oshiq bo'lgan qizning jamalak sochlarga alohida urg'u beradi:

Savdoyi boshimda aylanar ertak,

Ertakki, qo'shiq bor unda biram cho'x.

Bu qo'shiq ichra bor bir qiz misli cho'g' –

Lovullab yashaydi, sochi jamalak.

(H.Hayne. "Yoshlik izzitroblari". IV-sonet).

Lirik qahramon o'z sevgisini, mehru muhabbatini olam oshiqlaridan, yorga mahliyolar ichra yagona deb biladi va o'z sadoqatini izhor qiladi. Bunda lirik qahramon yorning hajri, unga etishmoqlik oldidagi mashaqqatlarining cheki yo'qligini ifodalamoqchi bo'ladi.

Tarjimon ko'p o'rinda "soch" so'zini mumtoz she'riyatimizdagi kabi "kokil" so'zi orqali ifodalaydi. Bu ham shoirning tasvirga an'anaviy yondashuvi mahsulidir.

Abdulla Sher Hayne lirikasidagi soch timsoli va u orqali inson qalbidagi nozik tuyg'ularning tasviri masalasiga o'z uslubi bilan yondashib, bugungi kungacha meros bo'lib kelayotgan go'zal an'anani davom ettirdi. Nodir topilmalari bilan uni boyitdi va go'zal namunalar yaratdi. Har qanday holda Abdulla Sher tarjimalarida inson qalbinning nozik tuyg'ulari ifodasi sezilib turadi. Shu sababli

¹⁸ Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. T. "O'qituvchi". 1993 y. 66–bet.

undan bahramand bo'lgan muxlislar nemis shoiri ijodiyoti bilan o'z qalblari o'rtasida yaqinlik sezadilar.

Abdulla Sher tarjimasidagi Hayne she'riyatida tush detali keng o'rin tutadi. Buning sababi, fikrimizcha, tush epizodlari shoir taxayyuli va tafakkuriga keng yo'l ochadi. Tuyg'ularini, fikr va g'oyalarini erkin ifodalashga sharoit yaratadi. Ma'lumki, Sharq adabiyotida ham tush detali, u bilan bog'liq tuyg'u va kechinmalarning lirik ifodasi keng tarqalgan. Shu zamin farzandi bo'lgan tarjimon Haynening tush bilan bog'liq lirik tafsilotlarini bizning ruhimizga mos tarzda mohirlik bilan o'giradi. Haynening lirik qahramoni ko'pincha tushida sevgilisining visoliga erishadi, uyg'oqligida armon bo'lgan bo'sani ham tushda oladi, nafrat va muhabbatini ham tushida to'kib soladi:

Orom bo'ldi uyqu jonimga,

Unutildi kulfatu qayg'u,

Kecha tushda keldi yonimga

Suluvlardan suluvroq suluv.

(Hayne. "Yoshlik iltiroblari", 9-qo'shiq).

O'zbek adabiyotining dongdor shoiri Bobur mirzoda ham shunga hamohang baytlar bor:

O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldim osuda,

Meni istasangiz, ey do'stlar, ko'rgaysiz uyquda.

Alisher Navoiy ham oshiq qalbinning eng dramatik kechinmalarini ifodalashda uyqu va tush detallariga murojaat qiladi:

Tushda ko'rdim yorimni xandon raqibim o'truda,

Rashkdin tishlarimni qirchillaturman uyquda.

Haynening "Ro'yolar" turkumiga kiruvchi ikkinchi qo'shig'i Navoiy baytlariga hamohang boshlanadi:

Men tush ko'rdim, dahshatli bir tush,

Ham qo'rqitar, ham aylar sarxush.

Ul dahshatli manzara hamon

Yuragimni titratar yomon...

Abdulla Sherning o'z she'riy merosida ham mumtoz adabiyotimiz namoyandalari va jahon klassiklarida bo'lganidek, inson qalbi tasviriga asosiy o'rin berilgani uning ustivor jihatidir. Bu hol shoir ijodida har qadamda ko'zga tashlanadi. Undagi she'riy mahorat inson obrazini, uning ichki va tashqi borlig'ini atroflicha chuqur, badiiy gavdalantira bilishda namoyon bo'ladi.

Abdulla Sher o'z lirik she'rlarida mavjud adabiy an'analarga rioya qilib, insonning haqiqiy qiyofasini aniq, ayniqsa, ma'shuqa obrazi vositasida keng tasvirlab bergan. Lekin shoir lirikasida yor va oshiq ichki dunyosi bir xilda ochilmagan. Unda ko'proq oshiqning va shoirning ruhiy olami ochib beriladi. Shoirning " Men may ichdim.." she'ridagi ushbu misralar ham oshiqning yor firoqi boshlanganidan keyingi kechinmalarini ifodalaydi:

***Kechir Yot gul, sen yot, yot, gulim,
So'ng bor quchib yo'lga shaylandim.
Tuni bilan ikkala qo'lim
Seni silab gulga aylandi.***

***Xush qol endi yorug' maskanda,
Men zulmatga qadam tashlayman.
Rahmat. Endi o'lgim kelganda
Qo'llarimni hidlab yashayman.***

Chindan ham dildorning xumor boqishlari, guldek qaddi-qomati lirik qahramonning, oshiqning joniga orom beradi. Agar u ketsa tanasi bejon bo'lganday tuyuladi. Misralardagi musiqiylik va ritm mumtoz an'alarimizga ohangdoshlik kasb etadi.

Navoiy lirik qahramoni muttatafakkir oshiq, u ma'shuqa tomonidan sevilishi lozim, deydi, uningcha, yor sevgiga loyiq bo'lmasa, oshiq boshqa gul izlashga haqli, ammo u "bir erkakning bir ayol tomonidan o'zaro muqobil sevilishini talab qiladi"¹⁹.

¹⁹ Shayxzoda M.Navoiyning lirik qahramoni haqida. Ulug' o'zbek shoiri.T. 1984, 145-bet.

Abdulla Sherda esa bu hol o'zgacharoq mohiyat kasb etadi. Unga ma'shuqaning oshiqqa bo'lgan sevgisidan ko'ra, oshiqning ma'shuqaga bo'lgan sevgisi, sog'inchlari cheksiz. U ma'shuqaning faqat o'ziga tegishli emasligi, "yot gul" ekanligi ifodasida ko'zga tashlanadi.

"Muhabbat bog'i", "Vafo bo'stoni" iboralari mumtoz she'riyatimizda juda ko'p qo'llanilgan. Oshiqni bulbulga, yorni gulga qiyoslash ham an'anaviylikning davomi ekanligi hisobiga she'rni o'quvchi yengil qabul qiladi, izoh qidirmaydi.

Abdulla Sher ijodida ruhiy holat tasviri alohida maqsadga emas, shoirning umumiy maqsadi, niyatini chuqurroq, aniqroq, ta'sirliroq ochishga, hayot murakkabliklarini, insonlarning o'zaro aloqalarining mushkulliklarini, turmushdagi turli-tuman ziddiyatlarini badiiy izohlashga, ulardan ko'z yummaslikka, ularni to'g'ri tushunib olishga qaratilgandir. Bu jarayon, ya'ni hayot hodisalarini psixologik yo'nalishda anglashga, tahlil etishga intilish shoir lirikasida ham yonma-yon tasvirlash kabi oddiy shakllardan murakkab ko'rinishlar tomon o'sib boradi.

Yaxlit ma'noli ibora, so'z birikmasi yoki so'zga urg'u berib, shoirona vaziyatni namoyon etish, yo biror-bir hodisadan ta'sirlanib, his-hayajonni to'kib solish, shu voqea mohiyatini ochish, yoxud muayyan an'anaviy tushuncha-tamsillar, obraz -ifodalar atrofida suxansozlik qilish, lutf ko'rsatish shoir estetik niyatining mevasidir.

Yashashning asl mohiyati ham insondek yashash, ma'naviy kamolotga intilmoqdir. Darhaqiqat, o'z ma'nosida ham oshiq ma'shuqning ko'ngliga yo'l topish uchun tobora kamolotga intilib boradi. Tashqi qiyofasidan tortib, ichki tuyg'ularigacha o'zgartira oladi. Shu boisdan Abdulla Sherding lirik qahramoni ma'naviyatga, komillikka intilishni o'z oldiga maqsad qiladi. Bu yo'ldagi mashaqqatlarga jon tikadi. Chindan ham mashaqqatsiz hech bir ezgu xislatga ega bo'la olmaydi kishi. Bu haqiqiy ma'noda bugungi kun kishilarining xarakteridagi istaklar bo'lib, shoir buni juda yaxshi anglagan va ziyraklik bilan she'rlarida ifoda etgan.

Shoir lirik qahramoni haqiqiy komil inson timsoli sifatida bugungi ko'p kishilarning yashash tarzini ochib berayotgandek:

Dunyoning o'yinin ko'rib yashadim,

O'yindan hikmatlar terib yashadim.

Zamonam mayini ichdimu, lekin

Xayyomning kayfini surib yashadim.

deydi u . Bu satrlar orasidan, darhaqiqat, Umar Xayyom an'analari, falsafasi yaqqol ko'rinib turadi. Zero, ko'hna Sharqning bu ulug' mutafakkiri ham o'z zamonasida turib, quyidagilarni yozgan edi:

Bizlar qo'g'irchoqmiz, falak – qurchoqboz,

Bu so'zim chin so'zdir, emasdir majoz.

Yo'qlik sandig'iga bir-bir tushamiz –

Vujud palosida o'ynagach bir oz.

Shoirning lirik qahramoni o'z aqli va salohiyati, mehnati bilan jon fido qilib bo'lsa-da, haqiqiy insonlardek yashashga intiladi. Ma'naviy hayotsiz yashayotgan odamlarni nodonlar bilan tenglashtiradi:

Umrinni sarf etdim – pul qildi zamon,

Gulxanlar yoqdim men – kul qildi zamon.

Men baxtni madh etib yozgan she'rimni

Qog'ozdan yasalgan gul qildi zamon.

(Abdulla Sher. “Ruboiy”).

Bunday keskin ohanglar mumtoz adabiyotimizning ulug' namoyandalari ijodida ham necha asrlar avval alamli yangragani yodimizga tushadi. Xususan, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham “Mahbub-ul qulub” asari muqaddimasida quyidagilarni yozgan edi:

Gahi toptim falakdin notavonlig',

Gahi ko'rdum zamondin komronlig'.

Base, issig', sovug' ko'rdum zamonda,

Base, achchig', chuchuk tottim jahonda.

Yoki jahongir bo'la turib, jahon ahlidan yaxshilik qidirgan, ko'z tutgan yaqinlaridan ham mehr topa olmagan Bobur mirzo baytlarida ham ana shu mazmun mujassam:

Kim ko'ribtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',

Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.

Chindan ham Navoiyning adabiy merosi eng katta ma'naviy boylikdir. Undan bahramand bo'lgan har bir odam hayotga yangicha o'y fikr va g'oya bilan qaray boshlaydi. Chunki Navoiy ijodiy mahsulini bir o'qisang, bir ma'no, ming o'qisang, ming ma'noni anglaysan kishi. Shu boisdan Abdulla Sher ma'naviyatga eltuvchi Navoiyning

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa

Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish

singari jonbaxsh va otashin misralariga quyidagicha payravlik qiladi:

Gohida o'xshayman omadsiz mastga:

Chinorga suyansam – aylanar xasga.

Erk istab olamga bulbuldek qo'nsam,

Qanotim sig'maydi bu tor qafasga.

Abdulla Sherning betakror iste'dodi, aqlu zakovati, topqirligi, so'zamonligi uning mumtoz an'alarimizni muvaffaqiyatli davom ettirgani, uni sayqallab, o'ziga xos yangiliklar kirita olganida, jahon adabiyoti namunalarini ona tilimizga o'girish jarayonida ham milliy kolorit va xususiyatlarni nazardan soqit qilmayotganligida yaqqol namoyon bo'layotir.

2-fasl. **Xarakter yaratishning usul hamda vositalari.**

Abdulla Sher lirikada xarakter yaratishda o'ziga xos usul hamda vositalardan keng va o'rinli foydalanadi. U yaratgan lirik obrazlarning xarakter chizgilari she'riyat muxlislarining ongi va shuuriga oson etib boradi va tez esda qoladi. Xususan, she'riyatda keng tarqalgan badiiy san'atlarning ohorli jihatlarini topib qo'llash, fikr-mushohada hamda kechinmalarni "tesha tegmagan" iboralar orqali lirik bayon etish shoir uslubiga xos asosiy qirralardan biridir.

Shoir ayniqsa, mubolag'a - bo'rttirish san'atidan g'oyat o'rinli foydalanadi: She'r mana shunday samimiy ohanglarda davom etar ekan, shoir yangi tashbihlar, mubolag'alar vositasida oshiq kechinmalarini tabiiy aks ettirib, rivojlantirib boradi:

Tizzangga yetmagan daryo quchoqlar

Qanotsiz baliq deb boldirlaringni.

Chinakam oshiq uchun yorsiz hech qanday halovat, orom yo'q. Yurtini yashnatib, chiroy ochib borayotgan ko'klam jozibasi ham oshiq yuragiga xush kayfiyat baxsh etishdan ojiz. Mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'alariga xos ruh balqib turgan bu misralarni original, benazir obrazlar sirasiga bimalol kiritish mumkin. Shoir bu tasvir ohangini kuchaytira borib, yanada avj pardalariga olib chiqadi:

Tashlandiq chaylada yozib dasturxon,

Bir qultum sharobdan sarxush bo'lamiz.

Senu men, muhabbat, orzu – to'rtovlon

Kimsasiz chaylaga zumda to'lamiz.

Abdulla Sher "Dengiz mavjlariga" deb boshlangan she'rida ham mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan tadrij va mubolag'a san'atlaridan foydalanib, yorning go'zal portretini chizib beradi. Bu lirik she'r ham katta mahorat bilan yozilgan bo'lib, shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi. Mumtoz adabiyotda ham, zamondosh shoirlar ijodida ham ma'shuqaning yuzi, husni jamoli oyga nisbat berilganini yaxshi bilamiz. Abdulla Sher esa uning aksini so'zlaydi, o'ziga xos paradoks yaratadi - ma'shuqa shunchalik go'zalki, hatto osmondagi oy ham uni

ko'rgach, hayratdan yo'llariga yo'lak – poyandoz soladi. Bu holatni shoir ajib misralarda jonlantirishga erishgan:

***Dengiz mavjlariga qo'naru o'ylar,
Oy solgan yo'lakdan ketar ufqqa.
Sog'inchli bir ohang dengizni bo'ylar,
Moviylar aylanar oydin qo'shiqqa***

Yor surati ana shu tarzda - oyning holati tasviri vositasida ifodalanadi. Shoir she'r davomida mubolag'a usulidan samarali foydalanishning ajib bir namunasini quyidagicha namoyish etadi:

***Qoratog'dan oshib, ul ohang tinar,
Chotqol nafasiga aylanar havo:
Qordek oq choynashda meni sog'inar
Bir latif, bir shirin, bir momiq dunyo.***

Xullas, lirik qahramon o'zi ma'shuqasini musavvir-san'atkor nigohi orqali betakror bir tarzda aks ettiradiki, shoirning bu topilmasiga tan bermasdan, qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q.

Yuqoridagi holatlarni adibning yana bir qancha she'rlarida ham kuzatishimiz, shubhasiz, shoirning muhabbat lirikasiga daxldordir.

Shoir she'rlarida hayot qatlamlariga, inson yuragining turli iqlimlariga nazar soladi. Teranlik, tasvir ravshanligi, aniqlik yo'lidan boradi. U hayot, turmushning rangin qirralarini tasvirlashni yaxshi ko'radi. Inson yuragi teran mavjlarga nazar solar ekan, uning raso, mukammal bo'lishini orzu qiladi. Agar odam hayotda yetuklik, mukammallik topa olmasa, unga erisha olmasa, bunga, eng avvalo, o'zi aybdor.

Abdulla Sher hayot voqeligiga har xil nuqtadan nazar soladi va uning turli qirralarini yoritib beradi. Shoir haqli ravishda e'tirof etganidek, hayotini yaxshilik yo'lga bag'ishlaganlar farog'atga erishib, kamolot kasb etib boradilar. Shoir nopok yo'lga yurgan kimsalarga jiddiy tanbeh beradi. Zotan, ular vijdon azobi, haq jazosidan hech qaerga qochib keta olmaydilar:

***Dedilarki: “Zo’rdir ganj kuchi,
Egilib ol, unda shon, mulk bor!”
Egildimu, qalamim uchi
Yuragimga qadaldi ilk bor.***

Ma’naviy yuksaklikni kuylashni o’z dasturiga aylantirgan bu lirik qahramon o’z shaxsiyati sifatida mardlik, jo’mardlik kabi fazilatlarni nihoyatda baland tutadi. Chunki, muhabbatni olijanobliksiz ta’savvur etish mushkul. Shu o’rinda uning mard, jasur va insonparvar yuragidagi nozik tuyg’ular daryo mavjlaridek yuzaga qalqib chiqadi. U mardlikning aksi bo’lgan nomardliklardan hazar qiladi, nomardlardan doimo hushyor bo’lish lozimligin ta’kidlaydi.

***La’nat aytib bunday ustozga,
Tutdim shunday, yo’llar baridan.
Ko’klamlarni yetaklab yozga
Chiqmoq bo’ldim Vaqtning qa’ridan.***

Bu she’rida Abdulla Sher mehr va e’zoz bilan yaratgan lirik qahramonga xos mardlik, insonparvarlik, olijanoblik, mehribonlik, sahovatpeshalik kabi yuksak ma’naviy fazilatlar, axloqiy kamolot, komillik belgilari chuqur namoyon bo’ladi.

Shoir ishq-muhabbat haqidagi she’rlarida ham ana shunday yo’l tutadi: ma’naviy yetuk zamondoshlarimizga xos go’zal tuyg’ularni badiiy jihatdan pishiq, mahorat bilan bitilgan samimiy misralar bag’riga jo etadi. U yurak amri bilan yozar ekan, bu borada dil izhorlarini, qalb tuyg’ularini, ko’ngil kechinmalarini oshkora bayon etadi, qalbida she’r va yor muhabbati egizak, yonma-yon yashashini faxr bilan tarannum etadi.

Keyingi bandlarda ham mana shu go’zal qiyos kuchaytirib boriladi. U ahdi paymonni mustahkam tutadi. Ammo bu ahdu paymon dildagi imon bilangina ustuvordir. Shunday ulug’vorlikka ko’tarilgan ishqni esa elga doston qilsa arziydi. Hatto yor unga karam qilmagan, ishqini qadrlamagan taqdirda ham qahramon ruhi ustunligicha qolaveradi. Sababi, unga faqat yor emas, eng avvalo, ona diyor ishq qadrlidir. Uning lirik qahramoni uchun “Vatan – sajdagoh kabi muqaddas”dir. Shoir yozadi:

Ey Qur'on, Hadisdan bebahra dinboz,

Bor-yo'q e'tiqoding soqoling xolos.

Meni benamoz deb qilma nadomat, -

Butun O'zbekiston menga joynamoz.

Ko'ramizki, shoir ishq haqidagi she'rlaridagi bo'lgani kabi ona yurt, diyor muhabbati, ona tuproq ishqiga hamnafas, esh qilib yubora oladi. Bu muqaddas tuyg'u shoirning deyarli barcha lirik asarlari bag'riga singib ketgan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Bu mavzu shoir she'rlarining bir qirrasi, xolos. Olmosda ming bir jilva ko'ringanidek, uning asarlarida ham turfa fikr jilolari tovlanib, ko'zga yarqirab tashlanib boraveradi. Biz bu she'rlarda goh sevgi-muhabbat vasfini o'qisak, goh yurt tabiatining go'zal, betakror tasviriga duch kelamiz, goh hayot va umr mazmuni haqidagi teran, purma'no fikrlar qurshovida o'yga tolamiz, goh quvnoq hazil-mutoyibalar qanotida engil parvoz etgandek, o'zimizni gulshan va bog'larda sayru tomosha qilib yurgandek sezamiz. Bunday xilma-xil mavzular va tuyg'ular olamini lirik ifodalash oson emas. Bu katta mahoratni, san'atkorlikni talab etadigan sermashaqqat ijod turidir.

Bu ravon satrlar mumtoz ohanglar sehrini dil tubidan his etgan shoir she'r texnikasini puxta egallaganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Abdulla Sher mumtoz adabiyotimizga xos an'analarga ham tez-tez murojaat etadi va ko'hna adabiyotimiz xazinasidagi obrazlar, timsollarning zamonaga monand tarzda yangicha ma'no tashishiga ham erishadi. Bu borada ko'plab misollar keltirish mumkin. Shoir o'z asarlariga hamisha hayotdan, inson qalbidan mavzu oladi. U hayoliy uydirmalar ortidan yugurib yurmaydi. Mazkur she'rda ana shu holat ham shoirona ifodasini topgan:

Yuksaklar deb yondim oshufta,

Somon yo'li hushimni oldi.

Ammo kiprik sanchilgan shiftda

Chatnat ketgan yosh – yulduz qoldi.

Hayot bag'ridan, inson yuragidan harorat olgan asar o'quvchi yuragiga yetib boradi. Abdulla Sher she'rlari muxlislar dilini rom etayotganiga sabab ham asli shunda.

Shu bilan birga shoir ishq-muhabbat faqat visol quvonchi-yu shodlik, sevinchdangina iborat emasligini yaxshi biladi. Uning hijronli ayozlari, bo'ronli kunlari, alamli tashvishlarga to'la iztiroblari ham bor. Ana shularga bardosh bera olgan, yorning barcha nozu istig'nolariga qo'ksini qalqon qilib, ma'naviy go'zal qalbi, yuksak olijanob fazilatlarini bilan uni rom qila olgan oshiqqina chinakam ishq egasi hisoblanadi. Bu tuyg'ular tasvirida ham shoirga mumtoz obrazlar yordamga keladi:

Qah-qah urdi umr bo'shlig'i,

O't qo'yganda orzuga armon.

Yallig'langan yillar qo'shig'i

Yondiradi bo'g'zimni hamon.

Lirik qahramonning Vatan ishqini ichra to'lg'onishlari va yuragidagi mehr zarblari nihoyatda tiniq va tabiiy bo'yoqlarda chiziladi. U qalb tuyg'ularini haroratli misralarda oshkora so'zlaydi:

Men yonaman: na yov, na do'stim

Qoraytolgan ufqimni erda.

Men olovman: zulmatni to'sdim

Vatanim deb cho'g'landim she'rda!

Shunday lutf, qalb qo'riga yo'g'rilgan bu tuyg'ularning hammasi shoirdagi yuksak yurtsevarlikni, beqiyos insonparvarlikni, chinakam odamiylik fazilatlarini namoyish etadi.

Abdulla Sher she'rlarining mavzu ko'lami kengdir. Mumtoz ohanglar sehriga yo'g'rilgan bu lirik asarlarda biz inson hayotiga, xarakteriga, qalbiga xos murakkab ziddiyatlarga to'la rangin olam manzaralarini ko'ramiz. Shoir ko'z o'ngimizda goh donishmand qiyofasida gavdalanadi, goh hayot, umr mazmuni haqida falsafiy hikmatlarni so'zlaydi. Ammo uning dil rozlari, umr saboqlaridan, ko'rgan-kechirganlaridan chiqargan xulosalari quruq pand-nasihatlar, oddiy, jo'n

o'gitlar emas. Ularda ham hayotda ancha-muncha baland-pastliklarni, issiq-sovuqni ko'rgan, boshidan kechirgan odamning mulohazalari ifodalanadi.

Ilhom bilan tizilgan misralarda shoirning chin ma'nodagi faol gumanizmi ifodalangan, deb bermalol ayta olamiz. Zero, bu misralarda inson jabhalaridagi ezgulik o'zining tugal ifodasini topgan. Mumtoz adabiyotimizdagi eng sara an'analar, xalq og'zaki ijodiga xos tabiiylik va samimiylik, jahon klassiklarining ilg'or g'oyaviy-badiiy, falsafiy-estetik ta'siri Abdulla Sher ijodini yuksakltirgan omillardir. Shu bilan birgalikda, uning o'ziga xos uslubda bitilgan she'rlari inson xarakterining nozik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Uning lutf bilan aytilgan qochirimlari, majozlari, benazir tashbehlari she'riyat shaydolari yuragidan allaqachon joy olgan.

X U L O S A

Sevimli shoirimiz Abdulla Sher ko'p yillar davomida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissasini qo'shib kelayotgan zabardast so'z san'atkoridir. U hamisha el-yurt xizmatida bo'lib, xalqimizning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni sergaklik va ziyraklik bilan kuzatadi. Lirik qahramoni kechinmalarini rang-barang tuyg'ular vositasida ifoda etadi. Zamondoshlari qalbiga quloq tutib, ularning orzu-istaklarini, nekbin maqsadlarini, axloqiy-ta'limiy qarashlarini hassoslik bilan kuylashga intiladi.

Abdulla Sher yaratgan ko'plab she'rlar, tarjima asarlar bugungi kunda she'riyat ixlosmandlarining ko'ngil mulkiga aylanib ulgurgan. Ba'zi she'rlari esa hofizlarning repertuarlaridan mustahkam o'rin olib, har bir xonadonda qo'shiq bo'lib taralmoqda. Bu she'r va qo'shiqlar ming-minglab kishilarning diliga orom bag'ishlab, ezgulik, olijanoblik, halollik, pokizalik, mehnatsevarlik, adolat va haqiqat g'oyalarini targ'ib etib kelayotir.

Shoirning sermahsul lirikasi, ingliz, olmon, rus adabiyotining sara namunalaridan qilingan tarjimalari o'zbek adabiyoti ravnaqiga qo'shilgan munosib hissadir. Ketma-ket e'lon qilingan "Qadimgi kuy", "Nuqtadan so'ng", "Toqat" deb nomlanuvchi she'riy to'plamlari, shoir tarjimasidagi Haynrih Haynening "Yoshlik iztiroblari" she'rlar majmuasi Abdulla Sherning zabardast so'z san'atkorlari safidan o'rin olganligini, yangi davr, hurriyat sharoitida bir ilhomiga o'n ilhom qo'shilganini yaqqol namoyish etadi. Bu asarlarning nashr etilishi esa uning ijodini tadqiq va tahlil etishga keng yo'l ochdi, ilmiy izlanishlar uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Abdulla Sher ijodidan namunalarni o'qir ekanmiz, uning har bir satrida hayot nafasi ufurib turganligini, voqelik xolis va haqqoniy tasvirlanganini his qilamiz. Bu bejiz emas, albatta. Shoir badiiy ijod bilan bir qatorda ko'p yillar davomida el-yurt xizmatida kamarbasta bo'lib kelmoqda. Adabiy jurnallardagi faoliyati, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul kotib sifatida xizmat qilganligi, bugungi kunda Milliy universitetning falsafa fakulteti etika va estetika

kafedrasida yoshlarga ta'lim berayotganligi uning ijodiy jarayonni ijtimoiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda olib borayotganidan dalolatdir.

Har bir qalamkash o'z ustida ishlashni to'xtatsa, izlanishdan tolsa, bir yerda deysinib qolishi, ijodning yuksak cho'qqilari pillapoyalaridan ko'tarila olmasligi tabiiy. Abdulla Sher ijodiy mahsulini ko'zdan kechirganimizda, umrining har bir faslida sermahsul ijod qilayotganligini, davr va zamon bilan hamkor, hamnafas bo'layotganligining guvohi bo'lamiz. Adabiyot maydoniga qadam qo'ygan yillaridagi izlanish va tajriba orttirish pallalaridagi jo'shqinlik, samimiyat, ilhom umrining keyingi bosqichlarida ham muttasil davom etmoqda. Shuningdek, yillar o'tgan sari shoir qalami g'oyaviy-falsafiy jihatdan charxlanib borayotir, ijtimoiy qarashlari, hayot va yashashga munosabat esa tobora zalvorliroq, chuqurroq hamda ta'sirchanroq tus olmoqda. Bu esa hamma qalam ahllariga ham nasib etavermaydigan noyob fazilatlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, lirik qahramonda muallif shaxsiyatining talay qirralari ob'ektiv ravishda o'z aksini topadi. Biz yuqorida shoirning shaxsiy fazilat hamda xislatlari haqida so'z yuritir ekanmiz, tadqiqotimiz mavzui bo'lgan lirik qahramon xarakterini yoritishda ham shoir biografiyasiga oid ma'lumotlarga beixtiyor tayanganligimizni e'tirof etmog'imiz lozim. Shoir lirik qahramoniga xos xususiyatlar: jo'mardlik, vatanparvarlik, matonat, saxovat singari olijanob xislatlar zahirida ham, avvalo, shoir shaxsiyatiga, xarakteriga oid chizgilar yotganligini sezish mumkin.

Abdulla Sher o'z ijodini she'rlar yozishdan boshlaganligi sababli lirik tur, uning janrlari, ifoda usullari, tasvir vositalari borasida mahorati asardan asarga, kitobdan kitobga o'sa bordi. Yillar o'tgan sari ijodining mavzular doirasi, g'oyalar ko'lam tobora kengaydi. Lirik obrazlar safi ham shunga yarasha boyidi. Ruhiy kechinmalar tasvirida, g'oyaviy-falsafiy xulosalar chuqurlashuvida uning ijodiy faoliyatida tadrijiy takomilning uzluksizligi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Janrlar tizimi ham kengayib, takomillashmoqda. Ko'proq lirik she'rlar hamda dostonlarda qalamini sinagan shoir bora-bora tarjima sohasida ham kuchini sinab ko'rdi. Jahon adabiyotining eng ilg'or an'alarini zamonaviy mavzularni

yoritishda ishga solayotir. She'riy tarjimonlik esa unga qo'shimcha tajriba va o'rganish maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Vatan, mehnat, ilm, yoshlik, sevgi, hijron mavzulari, motivlarida yangi gap aytishga intilmoqda.

She'riyatda lirik qahramon xarakteri xususiyatlarini ochishda xilma-xil vositalar, usullarni mukammal egallagan shoir badiiy tarjimada ham mahoratini namoyon qila oldi. Bayronning "Don Juan" she'riy romanini ingliz tilidan, Haynrih Haynening "Olmoniya" dostoni va "Qo'shiqlar kitobi"ni nemis tilidan, Pushkin, Nekrasov, Anna Axmatova asarlarini rus tilidan o'zbekchaga o'girishda Abdulla Sherning lirik janrlardagi sermahsul ijodi tufayli orttirgan tajribalari qo'l keldi. Bu tarjimalar epik tasvir hamda chuqur lirizmning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan mukammal adabiy meros sifatida madaniy hayotimizda muhim voqealar bo'ldi.

Mazkur tadqiqot ishimiz nihoyasida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. Abdulla Sher nafaqat lirik, balki epik ko'lamdagi asarlari bilan ham o'zbek adabiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'sha olgan, so'z san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan qalam sohibidir.

2. Shoir lirik qahramon xarakterini yaratishda hamisha zamonaviylik prinsiplaridan og'ishmadi. O'zi murojaat qilayotgan lirik janr spesifikasi – xususiyatlaridan kelib chiqib, xarakter yaratishning turli usul hamda vositalaridan unumli va o'rinli foydalandi.

3. Abdulla Sher so'z san'ati tarixi va bugunidan yaxshi xabardor bo'lgan adibdir. Shuning uchun ham u o'tmish shoirlari boshlab bergan an'analarni muvaffaqiyatli davom ettirish bilan birga, ularga zamonaviy ruh bag'ishladi, an'analarni yangi bosqichga ko'tardi va rivojlantirdi.

4. Abdulla Sherning adabiy merosi janrlar nuqtai nazaridan ham, mavzu va g'oyalar ko'lamini jihatdan ham, badiiyati va axloqiy-ta'limiy xususiyatlari bilan ham davr va zamon talablariga to'la javob beradi.

5. Shoir qalami tufayli o'zbek kitobxonlariga yetib borgan ingliz, nemis, rus adiblarining asarlari ham adabiy tarjimaning mumtoz namunalari sifatida e'tirof

etilmoqda. Zero, xorijiy tildan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish amaliyoti katta ahamiyatga ega ekanligi barchaga ma'lumdir.

Ishonamizki, yuqoridagi xulosalarga ko'ra, uning qalamiga mansub badiiy asarlar, tarjimalar kelgusida olib boriladigan dolzarb ilmiy tadqiqotlarga bimalol material bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


- 1.Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T: "Ma'naviyat".2008
- 2.Adabiy tur va janrlar, O'zR FA, "Fan", II tomlik, 1-tom, 1991.
- 3.Adabiy tur va janrlar, O'z FA, "Fan" . II tomlik, 2-tom, 1992.
- 4.Adabiyotshunoslik asoslari va mezonlari,-T: 2004, B.N. Sarimsoqov.
- 5.Aristotel. Poetika T: G'. G'ulom nomidagi AS nashriyoti. 1980.
- 6.Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar,-T: "O'zdavnashr",-1955.
7. Hayne H. Yoshlik iztiroblari. She'rlar. **Ziyouz. com** kutubxonasi
8. Jamol Kamol. Lirika. T.: "Fan" nashriyoti. 1986
9. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva,-T: "Fan" nashriyoti,-2006.
10. Jo'raev H., Lirik qahramon va muallif shaxsiyati,-T: "Fan". 2008.
11. Olimjon H. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 3- tom, 132-141 betlar.
- 12.Sulton I. Adabiyot nazariyasi,-T: "O'qituvchi" nashriyoti, 1980
- 13.Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari,-T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, -2009.158-167 betlar.
- 14.Soliev A. Qahramon ruhiyati va dramatik vaziyat,-2008.
- 15.Turdieva K. Tabiat va ma'naviyat. "O'zbek tili va adabiyoti",-1990
- 16.Mamajonov S. Shoir dunyosi,-T: G'afur G'ulom nomidagi AS n. 1974.
- 17.XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi, O'z.mil. ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti-2007.
- 18.Panasenko E.D. Umarov E.A, O'zbek tilining imlo lug'ati-T: -1998.
- 19.Sharafiddinov O.Iste'dod jilolari- T: Adabiyot va san'at,-1976.
- 20.Qo'shjonov M. Ijod mas'uliyati-T: Adabiyot va san'at,-1981.
- 21.Quronov D. "Adabiyot nadir" yoki Cho'lponning mangu savoli.T: 2006.
- 22.G'ofurov I. Hayo – xaloskor. T.: 2006
23. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish.. Toshkent. 2004
- 24.Hamdamiy U. Yangilanish ehtiyoji-T: Fan. -2006.
- 25.Hotamov N.Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati-T: O'qituvchi,-1979.

M U N D A R I J A

Kirish.....	4
I BOB. Lirikada umuminsoniy kechinmalar	
1-fasl. G'oya va badiiy mahorat.....	8
2-fasl. Tabiat tasviri va inson kechinmalari.....	20
II BOB. Tarjima va ijodiy ta'sir muammolari.	
1-fasl. Lirikada an'ana va o'ziga xoslik.....	34
2-fasl. Xarakter yaratishning usul hamda vositalari.....	44
Xulosa	50
Foydalanilgan adabiyotlar	54
<i>I l o v a l a r.....</i>	56


1-ilova

ABDULLA SHER IJODIGA TA'SIR KO'RSATGAN OMILLAR



2-ilova

H.HAYNE ASARLARI TARJIMASIDAGI ASOSIY XUSUSIYATLAR



**Филология факультети ўзбек филологияси йўналиши 445-гуруҳ
талабаси Ғозиева Мавлуданинг “Абдулла Шер шеърларида анъана ва
ўзига хослик (Ҳ. Ҳайне шеърлари таъсирида)” мавзусидаги битирув-
малакавий ишига**

Т А Қ Р И З

Истиқлол шарофати билан ўзбек адабиёти намояндаларининг жаҳон адабиёти дурдоналаридан тўғридан тўғри баҳраманд бўлиши, кўплаб машҳур асарларнинг асл нусхадан таржима қилиниши, адабий таъсир ва ҳамкорлик масалаларига катта имконият эшиклари очилди. Ана шу имкониятлардан самарали фойдаланаётган қалам соҳибларидан бири таниқли шоир Абдулла Шердир. Мазкур битирув-малакавий иш ушбу жараёни илмий текширишга йўналтирилгани билан муҳим аҳамиятга молик.

Абдулла Шер ҳам таржимон, ҳам мухлис сифатида мурожаат қилган машҳур немис шоири Ҳайнрих Ҳайне жаҳон адабиёти ва маданиятида ўзига хос ўрин тутувчи сиймолардан биридир. Шоир лирикасининг мавзулар кўлами ғоят кенглиги билан бирга у мурожаат қилган образлар тизими ҳам ғоят хилма-хил. Хусусан, шоир энг кўп мурожаат қилган лирик образлар, умумбашарий ғоялар, нафис туйғу ва кечинмалар, фалсафий қарашлар Абдулла Шер таржималари орқали халқимизнинг ўз мулкига айланиши кувончлидир. Таржимон ўз ижодида ҳам Ҳайненинг лирик ифода имкониятларидан, бадиий усул ва воситаларидан, поэтик маҳорат сирларидан унумли ва ўринли фойдаланиши шубҳасиз. Бу эса ижодий таъсирланишнинг самарали кўринишларидан биридир.

Шоир ўз шеърларида ўзбек тилининг бой имкониятларидан, ўзига хос хусусиятларидан маҳорат билан фойдаланди. Бу эса унинг замонавий ўзбек адабий тилининг ривожланиши ва тараққий этишига қўшган улкан ҳиссаси дейиш мумкин. Шу билан бирга ўзигача бўлган анъанавий лирик образлар сафини кенгайтди, улар зиммасига янгидан-янги ғоявий-эстетик вазифалар юкледи.

Абдулла Шер нафақат сўз санъаткори, балки фаол жамоатчи сифатида ҳам ижтимоий-сиёсий ҳаётда яқиндан иштирок этди, шунинг учун ҳам

замонамизнинг турли муаммолари, инсоннинг рангин руҳий кечинмалари, олам ва одам муносабатлари шоир ижодида ўзининг лирик ифодасини топди. Қаламга олинаётган мавзунинг салмоғи ва аҳамиятига кўра турли лирик образларга мурожаат қилди. Шунинг учун ҳам шакл ва мундарижа уйғунлиги шоирнинг таржималарида ҳам, ўз ижодий маҳсули мисолида ҳам юксакликка кўтарилди.

Шоирнинг она тилимизга ағдарган таржима асарлари ҳамда ўз адабий мероси илғор ғоялари, юртпарварлик ва инсонпарварлик руҳи, чуқур фалсафийлиги билан бугунги кунда халқимизнинг маънавий меросига айланмоқда.

Мавлуда Ғозиеванинг мазкур битирув-малакавий иши ўзбек адабиёти равнақиға муносиб ҳисса қўшиб келаётган шоир ва таржимон Абдулла Шер ижодидаги юқорида қайд этилган хусусият ҳамда фазилатларни илмий текширишға бағишланган. Қониқиш билан қайд этиш мумкинки, тадқиқотчи ўз олдига қўйган мақсад ҳамда вазифаларни уддалай олган.

Битирув малакавий иш анъанавий кириш, тўрт фаслни ўз ичига олувчи икки асосий боб, хулоса ҳамда фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат. Биринчи боб “Лирикада умуминсоний кечинмалар тасвири” деб номланган. Боб мавзусининг бундай белгиланишиға сабаб иш билан танишиш жараёнида ойдинлашади. Нафақат ижодий-услубий жиҳатдан, балки мураккаб ҳаёт йўли ҳам ўзига хос бўлган Ҳайненинг воқеликка муносабати, умр йўлидаги ҳодисалар ижодига ҳам кучли таъсир этиб, жаҳон мумтоз лирикасидаги деярли барча образларға мурожаат қилишиға сабаб бўлган. Бу ҳол биринчи бобнинг биринчи фаслида атрофлича ёритилган ҳамда мисоллар билан асосланган. Иккинчи фасл ўзининг таҳлилларға бойлиги, характерли мисоллар танлангани билан диққатни тортади. Мазкур фаслда шоир ижодида ижтимоий ҳаётни тасвирловчи лавҳалар ва инсоний туйғулар тараннумининг таржимада қандай акс этганлиги илмий текширилган ва тегишли назарий хулосаларға келинган. Иккинчи боб “Таржима ва ижодий таъсир муаммолари” деб номланади.

Бобнинг биринчи фаслида инсон руҳий кечинмалари ҳамда ижтимоий муаммоларнинг лирик образлар воситасидаги талқинлари таржима шеърлар ва шоирнинг ўз ижоди намуналари асосида текширилган. Иккинчи фасл эса анъана ҳамда поэтик маҳорат муаммоларини ёритишга йўналтирилган. Ишнинг якуний қисмида тадқиқот натижалари умумлаштирилган, илмий-назарий хулосалар баён этилган.

Муаллиф мавзуга алоқадор манбалар ҳамда тадқиқотлар билан имкон даражасида танишган. Уларга ўрни билан ўз муносабатини билдирган. Энг муҳими муаммо ечимига миллий истиқлол мафкураси асосида ёндашган.

Битирув-малакавий иш юзасидан тақлиф ва мулоҳазалар:

- Бобларнинг фаслларида бадиий воситалар ҳамда лирик образлар асосий ўзак сифатида ёритилиши мақсадга мувофиқ бўлган. Аммо таржима асарлар ҳамда Абдулла Шер ижодидаги барча лирик образларни, уларнинг ижтимоий функцияларини, умумбашарий хусусиятларини обзор тариқасида бўлса ҳам тилга олинса яхши бўлар эди.
- Шоирнинг лирик асар яратишдаги маҳоратининг Ҳайне таъсири натижалари ҳақида фикр юритаётганда унинг муайян қиррасини (бадиий санъатларни қўллаш, новаторлик ёки образлилик хусусиятларини) ажратиб олинганда яхши бўлар эди.
- Ишда маромига етмаган хулосалар, ғализ жумлалар учрайди. Имловий хатолар ҳам кўзга ташланади. Муаллиф бу камчиликларни ҳимоягача бартараф этишига ишонамиз.

Мазкур битирув-малакавий иш қўйиладиган талабларга тўла жавоб беради деб ҳисоблайман. Тадқиқот муаллифи бажарган ишларни ижобий баҳолайман ва ҳимояга тавсия этаман.

Расмий тақризчи:

Т. Рўзиев,

ФарПИИ қошидаги АЛ она тили ва адабиёт ўқитувчиси.